

ISSN: 2181-4147

*Scientific Journal*

# *Scholar*

*Volume 1, Issue 22*



TOGETHER WE REACH THE GOAL

*2023/22*

*August*

ISSN 2181-4147  
VOLUME 1, ISSUE 22  
AUGUST 2023



<https://researchedu.org/index.php/openscholar>

**“SCHOLAR” SCIENTIFIC JOURNAL  
VOLUME 1, ISSUE 22, AUGUST, 2023**

**EDITORIAL BOARD**

**G. Kholmurodova**

*Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University*

**A. Madaliev**

*Professor, Doctor of Economics, Tashkent State Agrarian University*

**G. Sotiboldieva**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University*

**U. Rashidova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Philological Sciences, Samarkand State University*

**D. Darmonov**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University*

**X. Abdusakimova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University*

**U. Ruzmetov**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Chemical Sciences, National University of Uzbekistan*

**M. Yusupova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University*

**M. Kambarov**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, Namangan State University*

**S. Sadaddinova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Physics and Mathematics Sciences, Tashkent University of Information Technologies*

**M. Fayzullaev**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) Geographical Sciences, Karshi State University*

**Z. Muminova**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine*

**B. Kuldashov**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine*

**Kh. Askarov**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Fergana Polytechnic Institute*

**S. Nazarova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Bukhara State University*

**O. Rahmonov**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Technical Sciences, Fergana Polytechnic Institute*

**G. Tangirova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University*

**Z. Koryogdiev**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Historical Sciences, Bukhara State University*

**S. Ubaydullaev**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnology*

**R. Yuldasheva**

*Associate Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University*

**M. Yuldashova**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Namangan State University*

*Editorial Secretary: J. Eshonkulov*

## O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHI

**Abduraxmonov Sherali Sharifjonovich**

Namangan davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrası o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** *Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini mamlakat iqtisodiyoti o‘shish ko‘rsatkichlarida ahamiyati, zarurati qayd etilgan. Ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, infratuzilma yaxshilashga doir mulohazalar keltirilgan. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliti eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan mamlakatimizda amalga oshirilgan islohatlar ahamiyatiga fikr, mulohazalar keltirilgan. Ushbu tarmoqdagi eksport ko‘rsatkichlarda erishilayotgan natijalarni tahlil qilingan. Shuningdek, bu tarmoqdagi muammolar va takliflar keltirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, kichik biznes sub’yektlari, eksport hajmi, yagona darcha, etakchi eksportyor, eksport salohiyat.*

**Аннотация:** *Отмечена важность, необходимость малого бизнеса и частного предпринимательства в показателях роста экономики страны. Представлены соображения по улучшению деловой среды, улучшению инфраструктуры. Были высказаны мысли и соображения о важности проводимых в нашей стране реформ, направленных на повышение экспортного потенциала малого бизнеса и частного предпринимательства. Экспорт в этой отрасли анализировал результаты, достигнутые в показателях. Также перечислены проблемы и предложения в этой сети.*

**Ключевые слова:** *Малый бизнес и частное предпринимательство, малый бизнес, объем экспорта, единое окно, ведущий экспортер, экспортный потенциал.*

**Abstract:** *The importance, necessity of small business and private entrepreneurial activity in the growth indicators of the country's economy is noted. Comments on improving the business environment, improving infrastructure are presented. Opinions, considerations are presented on the importance of reforms carried out in our country aimed at increasing the export potential of the small business and private enterprise activist. Exports in this network analyzed the results achieved in the indicators. There are also problems and suggestions in this network.*

**Keywords:** *Small business and private entrepreneurship, small business entities, export volume, single window, leading exporter, export potential.*

### ***Kirish***

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik har qanday rivojlangan iqtisodiy tizimning ajralmas ob'ektiv zarur elementi bo'lib, ularsiz iqtisodiyot va umuman jamiyat normal mavjud bo'lolmaydi va rivojlana olmaydi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning juda muhim ahamiyati bozor iqtisodiyotining harakatchanligi va moslashuvchanligini oshirish uchun kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta'minlashdir. Ayniqsa, mahalliy bozorni yuqori talabga ega tovarlar va xizmatlar bilan tezda to'ldirishdagi o'zni beqiyos hisoblanadi, bozor uchun zarur bo'lgan raqobatni, bozor sharoitidagi har qanday o'zgarishlarga javob berishga tayyorlikni ta'minlaydi.

Shuning uchun davlat tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini tartibga solish va uni qo'llab quvvatlash chora-tadbirlari doimiy ishlab chiqiladi va amaliyotga joriy qilinadi.

O'zbekiston iqtisodiyoti tarkibidagi izchil o'zgarishlarning dalili sifatida unda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli tobora ortib borishida ko'rishimiz mumkin. Bunga asosiy sabab mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka yaratilayotgan shart-sharoitlar, imkoniyatlarni keltirishimiz mumkin. Jumladan, kichik biznes sub'yektlarining ro'xatdan o'tishning soddalashtirilgani va qisqa vaqt sarflanishi, yogona soliq stavkasini joriy etilishi, yangi tashkil etilgan

kichik korxonalar, ayniqsa chet el investitsiyalar asosida tashkil etilgan bo'lsa, soliqdan imtiyozlar berilishi, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, jumladan imtiyozli stavkalar boyicha kreditlar, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasining tadbirkorlik faoliyatiga berilgan kredit mablag'larining 50% miqdoridagi kafillik va tijorat banklari kreditlari bo'yicha hisoblangan foiz xarajatlarini qoplash, tadbirkorlik subyektlarini huquq va qonuniy manfaatlarini davlat tomonidan himoyalaniishi, tadbirkorlik sub'yektlariga davlat xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha "yagona darcha" tamoyili asosida xizmatlar ko'satish markazlarini tashkil qilish, tadbirkorlik sub'yektlariga biznes yuritish bo'yicha o'quv kurslarini tashkil qilinishi, xususiylashtirilgan ob'yektlar bo'yicha loyihalar amalga oshirish hamda klasterlar tashkil qilish kabi imkoniyatlarini keltirishimiz mumkin.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning oily majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasida, "Kelgusi yildan boshlab tuman va shaharlar mavjud sharoiti, salohiyati va imkoniyatlaridan kelib chiqib, 5 ta toifaga ajratiladi. Jumladan, tadbirkorlik uchun har tomonlama rivojlangan 26 ta tuman – 1-toifaga; infratuzilmasi yaxshi bo'lgan 46 ta tuman – 2-toifaga; sharoiti nisbatan qoniqarli bo'lgan 76 ta tuman – 3-toifaga; jozibadorligi etarli bo'lmagan 40 ta tuman – 4-toifaga; sharoiti og'ir bo'lgan 20 ta tuman – 5-toifaga to'g'ri keladi."<sup>1</sup> deb ta'kidlab o'tildi.

Shuningdek, "Endi toifaga qarab, tumanlarning iqtisodiy rivojlanishini belgilaymiz. Tadbirkorlar uchun subsidiya, kreditlar va kompensatsiyalar toifalardan kelib chiqib ajratiladi. Ular uchun soliq stavkalari har xil bo'ladi." deyilishi ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab quvvatlashga amaliy misol bo'la oladi.

### **Tadqiqot ishiga oid adabiyotlar tahlili.**

Ko'plab xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mazmun mohiyati, uni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar, kichik biznes sub'ektlarining iqtisodiyotdagi o'rni hamda ahamiyati to'g'risida ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, tadbirkorlik tushunchasiga berilgan

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi. URL: <http://www.pres.uz>

dastlabgi ta'riflarni olsak, Kantillon o'rganishlarida tadbirkorlik faoliyatini tavakkalchilik, xavf-xatar doimo mavjud ekanligiga alohida ur'gu beradi. Bundan tashqari, Jan Batist Sey tadbirkorlik funksiyasining tarkibiga quyidagi elementlarni kiritadi: "...ishlab chiqarish omillarining kombinatsiyasi (kapital va mehnat); ma'lumot to'plash va kerakli tajribani to'plash (chunki ma'lumot to'liq bo'lmasligi va noaniq vaziyatlarda tajribadan foydalanish mumkin); qaror qabul qilish va ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish", J.B.Sey fikriga ko'ra, tadbirkorlik faoliyati ishlab chiqarish munosabatlarining bir shakli bo'lib, u ob'ektiv iqtisodiy qonunlar tizimida boshqa iqtisodiy toifalar bilan o'zaro aloqada bo'lgan kategoriya sifatida qaralishi kerak.

A.Smitning fikricha, tadbirkor – kapital egasi. U muayyan tijorat g'oyasini amalga oshirib, daromad olish uchun tavakkalchilik bilan ish boshlaydi, chunki kapitalni biror-bir ishga sarflash doimo tavakkalchilik bilan bog'liqdir. Tadbirkorlikdan olingan daromad, A.Smitning fikricha, shaxsiy tavakkalchilik uchun olingan mukofot.

Y.Shumpeter tadbirkorning o'ziga xos xususiyatini paydo bo'lishini ko'rib chiqadi va o'zining "Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi"<sup>1</sup> kitobida, tadbirkor yangi g'oyalarni amalga oshirish qobiliyati bilan turli xil innovatsiyalarning paydo bo'lishini o'rganadi va tadbirkorning yangi funksional roli, avvalgi mavjud bo'lganlardan sezilarli darajada farq qiluvchi yangi narsalarni yaratish orqali iqtisodiy faoliyatning innovatsion faoliyatini ta'minlaydi deb aytib o'tadi.

B.Yu.Xodiev, M.S.Qosimova, A.N.Samadov kabi iqtisodchilarning mulohazalariga ko'ra "...tadbirkorlik muhiti asosan quyidagi to'rtta omil: huquqiy, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy omillarning o'zaro bog'liqligi natijasida amalga oshiriladi".

Iqtisodchi M.Rasulov esa tadbirkorlikni "...rivojlanishi uchun ma'lum sharoitlar talab etilib..." bu sharoitlar iqtisodiy, siyosiy, ruhiy va huquqiy asoslardan iborat ekanligini qayd etadi. U.V.Gafurovning ilmiy dissertatsiyasida kichik biznes

---

<sup>1</sup> Шумпетер Й. Теория экономического развития. –М., 1982. 29-бет.

va tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish, ishbilarmonlik muhitini kengaytirishga doir masalalarga e'tibor qaratilgan.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Ushbu maqolani yoritishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy sohalaridagi taniqli taniqli xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlanmalari, asarlari va maqolalari ularning mazmun, mohiyati o'rganilib, mazkur sektorni rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirish va ishbilarmonlik muhitini qulaylashtirishni ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlil qilindi.

Shu o'rinda, tadqiqot jarayonida yondashilgan masalaga doir statistik ko'rsatkichlar va ilmiy qarashlarni o'rganishda mantiqiy fikrlash, ilmiy mushohada, tizimli yondashuv, indunsiya va deduksiya metodlari hamda qiyosiy tahlil kabi usullari qo'llanilgan. Mavzuni yoritishda ekonometrik usullar, axborot manbalaridan, ya'ni darsliklar, o'quv qo'llanmalar, xorijiy adabiyotlar, tadqiqot hisobotlari, ilmiy-amaliy anjuman to'plamlari va internet ma'lumotlaridan foydalanildi.

### **Tahlil va natijalar.**

O'zbekistonda, bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga bir qator qulayliklar yaratilmoqda. Xususan, 2022 yildan boshlangan "Yangi O'zbekiston – raqobatbardosh mahsulotlar yurti" dasturi o'z samarasini bermoqda.

Bu dasturdan asosiy ko'zlangan maqsad eksportchi korxonalarini ochiq tanlov orqali saralab, ularni etakchi eksportyorlarga aylantirish va har tomonlama qo'llab-quvvatlashdir.

Dasturga kiritilgan eksportchi korxonalariga eksportni qo'llab-quvvatlash jamg'armasidan eksportoldi va eksport bilan bog'liq savdo operatsiyalarini moliyalashtirishi uchun oxirgi 12 oydagi eksport hajmidan kelib chiqib quyidagi moliyaviy yordamlar ko'rsatiladi:



- eksport hajmi 1 million dollardan 5 million dollargacha bo‘lganda – 1 million dollargacha;
- eksport hajmi 5 million dollardan 10 million dollargacha bo‘lganda – 2 million dollargacha;
- eksport hajmi 10 million dollardan 15 million dollargacha bo‘lganda – 3 million dollargacha;
- eksport hajmi 15 million dollardan 20 million dollargacha bo‘lganda – 4 million dollargacha;
- eksport hajmi 20 million dollardan ortiq bo‘lganda – 5 million dollargacha;
- bitta xalqaro standartni joriy qilish va sertifikatni olishi uchun ularga 30 ming AQSh dollaridan ko‘p bo‘lmagan miqdorda.

Shuningdek, “Tadbirkorlik sub’ektlarining eksport salohiyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni (PF–228-son, 30.09.2022 y.) qabul qilindi.


Farmonga muvofiq, 2022 yil 1 noyabrdan:

- bir eksport shartnomasi doirasida kelib tushmagan valyuta summasi eksportga yuklangan jami mahsulot narxining 5 foizidan oshmagan taqdirda muddati o‘tgan debitor qarzdorlik hisoblanmaydi va tadbirkorga nisbatan jarima qo‘llanilmaydi;
- eksport tashkilotlariga foyda va aylanmadan olinadigan soliq bo‘yicha soliq bazasini kamaytirish shaklidagi imtiyozlar tovarlarni realizatsiya qilishdan tushgan umumiy tushumdagi eksport hajmining ulushidan qat’i nazar qo‘llaniladi;
- qovun, kanakunjut, xantal va maxsar urug‘lari eksportiga ruxsat beriladi.

Shuning natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat eksport hajmidagi ulushi tobora ortib bormoqda.

Bundan tashqari, biz 2000-2022 – yillar mobaynida YaIMdagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushining o‘shishiga ta’sir etuvchi omillarni ko‘rib o‘tadigan bo‘lsak, eksport hajmi va umumiy ulushini kuchli ta’sir etishimiz mumkin.

2000 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tomonidan 334,3 mln dollar qiymatida eksport hajmini tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich yillar mobaynida barqaror o'sganligini, ya'ni 2021 yilda 3711,2 mln dollarni tashkil etgan, yoki 2000 yilga nisbatan 11 barobarga ko'paygan.




**1-rasm. O'zbekiston iqtisodiyotida umumiy eksport hajmidagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi. Manba stat.uz saytidan olingan. 2022\* - 2022 yilning 1,2,3-choraklari bo'yicha.**

2-rasmdan ko'rishimiz mumkinki, 2016 yildan o'sish ko'rsatkichlari ladal rivojlandi. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o'rnini oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari eksportini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2016-yil 16-martdagi PQ-2507-sonli qarori hamda 2016 yil 5 oktyabrdagi "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni alohida rol o'ynaydi.


Prezidentimizning qarorining asosiy maqsadi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksportini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi faoliyatini yanada kengaytirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilar, shu jumladan fermer

xo‘jaliklarining mahsulotlarini tashqi bozorlarga olib chiqish, eksportga chiqarishdan oldingi moliyalash sharoitlarini yaxshilash hamda respublikaning eksportga yo‘naltirilgan xo‘jalik subyektlarining ustav kapitalida qatnashishini tashkil etishdir. Buning natijasini 2-rasmda ko‘rishimiz mumkin.



**2-rasm. O‘zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning eksport hajmi. Manba stat.uz saytidan olingan. 2022\* - 2022 yilning 1,2,3-choraklari bo‘yicha.**

Agarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushini o‘shirish ko‘rsatkichiga asosiy omillarni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, shubhasiz kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatidagi eksportning ijobiy ta‘sirini keltirishimiz mumkin. 3-rasmdan O‘zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi va shu ulushidagi shu sohaning eksport ulushi dinamikasi o‘rtasidagi korelyatsiya bog‘lanishida yuqori bog‘liqlikni, ya‘ni 0.69 koeffitsientni yoki kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushida boshqa omillarga nisbatan 83 foizni tashkil etayotganligini ko‘ramiz.



**3-rasm. O‘zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi va shu ulushidagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning eksport ulushi o‘rtasidagi bo‘g‘liqligi.**

Agarda to‘g‘ri chiziq funktsiya grafiği asosida ekonometrik modeli bo‘yicha prognoz qiladigan bo‘lsak, eksport ulushini 30%, 35% yoki 40% ga o‘shirga erishilsa, natijada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi ham mos ravishda 68%, 74% yoki 81% bo‘lishini ta‘minlaydi.

Demak, yuqoridagilardan kelib chiqib kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va shart-sharoitlarni yanada yaxshilanib borilayotganligini aytishimiz mumkin. Lekin mamlakatimiz hududlaridagi tadbirkorlik faoliyatida ba‘zi muammolar ham uchrab turadi. Bu muammolarga quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

- hududlardagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatida eksport mahsulotlar ishlab chiqarishda raqobatbardoshlikka e‘tibor sustligi;
- hududlardagi fermer va dehqon xo‘jaliklari tomonidan etishtirilayotgan poliz va meva mahsulotlarini jahon standartlari bo‘yicha qayta ishlash va qadoqlashda etarlicha malakali mutaxassislar etishmasligi;

- hududlardagi fermer va dehqon xo'jaliklari tomonidan etishtirilayotgan poliz va meva mahsulotlarini ekologik xavsizligini ta'minlash sustligi;
- sanoat tarmog'idagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faolitada elektr energiyasi va gaz ta'minotidagi ba'zi vaqtlarda uzulishlarni, ayniqsa bu yilgi qish mavsumini boshqa davrlarga nisbatan og'ir kelishi va bu sohadagi ko'plab talofatlar keltirganligi;
- bundan tashqari jahonda kuzatilgan pandemiya va uning salbiy ta'sirini alohida e'tirof etishimiz mumkin va bundan tez chiqib ketishda ba'zi tadbirkorlar faoliyati og'ir chechayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Yuqoridagi muammolar ayniqsa pandimiyaning salbiy ta'sirini eksportda ham ko'rish mumkin. Masalan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining eksport hajmi 2019 yilda 4714,8 mln AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2020 yilda 3100,9 mln AQShga tushib ketgan, yoki YaIMdagi ulushini ham keltiradigan bo'lsak, 2019 yilda 27 % tashkil qilgan bo'lsa, 2020 yilda bu ko'rsatkich 20,5 % ga tushib ketgan.

### **Xulosa va takliflar**

Demak, yuqoridagi keltirilgan fikrlar bugungi kunda haqiqatdan ham ahamiyatli deb hisoblaymiz. Hamda bu muammolarni o'z echimini topish dolzarb bo'lib turibdi. Amalga oshirilayotgan islohotlar davomida kichik biznes sub'ektlarini rivojlantirish jabhalaridagi muammolarni hal etish va tegishli chora-tadbirlarini ko'rib borish har birimizning vazifamizga aylanishi kerak.

Bugungi kunda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati natijalari mamlakat YaIMga katta hissa qo'shayotganligini va iqtisodiyotda tutgan o'rnini muhim ekanligini ko'rib chiqdik. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini yanada qulaylashtirish borasida quyidagi chora-tadbirlarni ko'rish lozim deb hisoblaymiz:

- mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati eksport ulushini oshirish maqsadida, eksport operatsiyalari bo'yicha tashqi xarajatlarini qoplab berishga qaratilgan moliyaviy yordam turlarini yanada qulay ko'rishlarini joriy qilish lozim;

- tashqi bozorda milliy mahsulotimizni raqobatbardoshligini oshirish maqsadida logistika harajatlarini qisqartirish orqali erishish;
- eksportyor korxonalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida turli jamg'armalardan rag'batlantirish;
- horijiy mamlakatlar tadbirkorlari bilan mahalliy tadbirkorlarning tajriba almashishi va hamkorlikda ishlarni joriy etish maqsadida yarmarkalarni tashkil qilish;
- horijiy investitsiyalarni faol jalb qilish maqsadida investorlarga xususiy mulk daxlsizligini huquqiy asosda himoyalashni yanada takomillashtirish, imtiyozli soliq stavkalarini joriy qilish.

Bundan tashqari, eksport faoliyatini qo'shimcha qo'llab-quvvatlash orqali mahalliy mahsulotlarning yangi istiqbolli bozorlarga kirib borishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 dekabrda PF-286-son farmonini ham alohida ta'kidlash mumkin. Unga ko'ra quyidagilarni aytish mumkin:

1. Eksportni rag'batlantirish agentligi tomonidan eksportoldi va eksport bilan bog'liq savdo operatsiyalarini moliyalashtirish uchun ajratiladigan moliyaviy resurslar hisobidan berilgan kreditlarni o'z vaqtida so'ndirib kelayotgan tadbirkorlik sub'ektlariga kreditning so'ndirilgan qismiga mutanosib ravishda qo'shimcha kreditlar ajratish;

2. Tashqi savdo, investitsiyalar, mahalliy sanoatni rivojlantirish va texnik jihatdan tartibga solish masalalari bo'yicha Eksportni rag'batlantirish agentligi tomonidan tijorat banklariga eksport bilan bog'liq savdo operatsiyalari va eksportoldi moliyalashtirish kreditlari uchun moliyaviy resurslar taqdim etish hamda eksport qilishda tashish xarajatlarining bir qismini kompensatsiya qilish.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”. –T.: 2016 yil 29 dekabr, №O‘RQ-418.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari eksportini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2016-yil 16-martdagi PQ-2507-sonli qarori
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”. –T.: 2016 yil 5 oktyabr, PF-4848-son.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”. – T.: 2017 yil 7 fevral, PF-4947-son.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “Tadbirkorlik sub’ektlarining eksport faoliyatini qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” – T.: 2022 yil 21 dekabr, PF–268-son.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “Tadbirkorlik sub’ektlarining eksport salohiyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. – T.: 2022 yil 30 sentyabr, PF–228-son.
7. Aripov O.A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda ishbilarmonlik muhitini yaratish –T.: “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2019 yil.
8. Gafurov U.V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish: iqt. fan. dok. diss. –T.: 2017. – 309 b.
9. Дятлов А.Н. Общий менеджмент: концепции и комментарии: Учебник. / А.Н.Дятлов, М.В.Плотников, И.А.Мутовин. –М.: Алпина Бизнес Букс, 2007.
10. G‘ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. –T.: TDAU, 1998.
11. Shumpeter Y. Teoriya ekonomicheskogo razvitiya – M.: 1982. S. 159.
12. Xodiev B.Yu., Qosimova M.S., Samadov A.N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. O‘quv qo‘llanma. –T.: TDIU, 2010

13. Gafurov U.V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish: iqt. fan. dok. diss. –T.: 2017. – 309 b.
14. Xodiev B.Yu. O‘zbekiston iqtisodiyotida tadbirkorlik rivojlanishini ekonometrik modellashtirish: iqt.fan.dok.disc. -T.: TDIU. 2000.-338 b.
15. Ergashev I.I. “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy o‘shiga ta’siri” “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2021 yil
16. Кенжаев И.Э., Балтабаев М.Т., Абдурахманов Ш.Ш. Иностранные Инвестиции В Малый Бизнес //Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 159-164.
17. Siddikov, A.M., Baltaboev, M.T. and Abduraxmonov , S.S. 2022. Formation and Development of Small Business in Uzbekistan. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance. 3, 11 (Nov. 2022), 76-80.
18. Sharifjonovich, A. S., & Tashpulatovich, B. M. (2021). Integrated Development of Small Business.
19. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=WdGWYH4AAAAJ&citation\\_for\\_view=WdGWYH4AAAAJ:M3ejUd6NZC8C](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=WdGWYH4AAAAJ&citation_for_view=WdGWYH4AAAAJ:M3ejUd6NZC8C)
20. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=WdGWYH4AAAAJ&citation\\_for\\_view=WdGWYH4AAAAJ:qxL8FJ1GzNcC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=WdGWYH4AAAAJ&citation_for_view=WdGWYH4AAAAJ:qxL8FJ1GzNcC)
21. <https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=11270864545143451464&btnI=1&hl=ru>
22. <https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=18378594005960085066&btnI=1&hl=ru>
23. <https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=13502326075767164591&btnI=1&hl=ru>
24. <https://stat.uz/uz/>
25. [www.press.uz](http://www.press.uz)



## TEACHING SUBJECTS ON THE THEORY OF PROBABILITY IN SCHOOL MATHEMATICS LESSONS WITH THE HELP OF LIFE EXAMPLES

**Mukhammadieva Dilshoda**

JDPU Mathematics and Informatics student of the faculty

[muxammadiyevadilshoda6@gmail.com](mailto:muxammadiyevadilshoda6@gmail.com)

**Abstract:** *This article talks about the effectiveness of teaching topics related to the theory of probability in school mathematics classes with the help of real examples. Examples and issues related to it are developed.*

**Key words:** *mathematics, curve, combinatorics, random.*

As we all know, all textbooks of the school are currently being revised and reprinted. Along with these textbooks, a lot of innovations were introduced to the mathematics textbooks. Previous textbooks did not include topics such as combinatorics and probability theory. These topics are introduced as news. Probability theory is one of the topics related to life. Therefore, it will be much more effective to explain the topic of probability theory to schoolchildren on the basis of life issues. Because a person faces various issues in his life every day. From these cases, it follows that a person has acquired theoretical knowledge in making the right decision. In particular, knowing the theory of probability, a person can easily solve these problems.

Probability theory covers different areas of life. For example, economy, construction, medicine, education, etc. Everything we do in life has a probability. If we can know this probability, we can find the probability of the outcome of our work. This thing happens almost every day in practical life. Therefore, when explaining the theory of probabilities to students in school, it is appropriate to explain as much as

possible through real life examples. Then the students' attention and interest in the lesson will increase.

In passing the topics of probability theory at school, explaining not only the standard issues within the scope of the topic, which are presented in many literatures, but also through vital and understandable issues related to interesting fields for students, increases the interest in the lesson and also about the practical importance of the topic in the minds of the students. imaginations appear and their motivation to learn science increases.

Probability theory is a field of mathematics that deals with finding the probability of occurrence of other random events, which are connected in some way, according to the probability of occurrence of any random events. Now let's get acquainted with the examples of probability theory.

Examples:

The first example given below can be found in the field of many businesses. 1. There are  $n$  valid details in a batch of  $N$  details.  $m$  details are taken at risk. Find the probability that there are at least  $k$  valid details among the received details. *Solving.* The number of groupings that can be made of  $m$  elements from  $N$  elements can be obtained by  $C_N^m$  methods, in which the remaining  $m$  details are invalid. Necessary, and  $m-k$  invalid details can be obtained by  $C_{N-n}^{m-k}$  method among  $N-n$  invalid details. So, the number of convenience events is equal to  $C_n^k \cdot C_{N-n}^{m-k}$ .

Probably what you're looking for

$$P = \frac{C_n^k \cdot C_{N-n}^{m-k}}{C_N^m}$$

The second example given below can be found in the process of various games.

2. A box containing 9 white, red and blue balls contains 4 white and 3 red balls. Find the probability of getting a non-blue ball from the box.

*Solving.* Let the event  $A$  represent the fact that the received ball will be white, and the event  $V$  will represent the event that it will be colored. If the ball you

received is not blue, it is white or blue means it will be colorful. According to the definition of probability:

$$P(A) = \frac{4}{9}, P(B) = \frac{3}{9} = \frac{1}{3}$$

Now, based on the addition theorem, we find the probability of a non-blue ball coming out:

$$P(A + B) = P(A) + P(B) = \frac{4}{9} + \frac{1}{3} = \frac{7}{9}$$

In our third example, we will learn to find the probability of winning in winning games that occur in life.

3. There are 4,000 lotteries, 450 of which are winners. One of these tickets was taken by accident. Find the probability of his winning event.

Solution: According to the probability formula:

$$P = \frac{450}{4000} = \frac{9}{80}$$

In conclusion, it is necessary to regularly teach the theory of probabilities to schoolchildren in relation to life. It is necessary to take into account the interests of the students when conducting educational activities. Accordingly, it is necessary for teachers to correctly apply educational strategies in the teaching process.

### List of used literature

1. Vafayev R. et al. Fundamentals of Algebra and Analysis: A Study Guide for Academic Lyceums and Vocational Colleges. - T.: Teacher, 2001.
2. B. Abdurahmanov "Mathematical induction method" - T.: 2008.
3. Mamatov Sh. "Methodology of teaching mathematics and informatics" educational-methodological complex. Samarkand: SamDU publication.: 2010.
4. Saidakhmedov N.S. New pedagogical technologies. Tashkent: Finance, 2003. mathematics.
5. Curriculum for academic lyceums and vocational colleges. (A. Abdushukurov et al.). T. 2010
6. Соловьёв Ю. П. Задачи по алгебре и теории чисел для математических школ. Ч. 1 - 3. — М.: школа им. А. Н. Колмогорова, 1998

## ALEKSANDR FAYNBERG SHE'RLARINING LINGVISTIK TAHLILI

**Lobar Sirojiddin qizi Jumaniyazova**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

3-ingliz fakulteti talabasi

[lobarjumaniyazova7@gmail.com](mailto:lobarjumaniyazova7@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Mazkur maqolada o'zbek va rus xalqining iste'dodli ijodkori Aleksandr Faynberg she'riyati haqida ma'lumotlar berib boriladi. Shuningdek, uning she'rlari lingvistik jihatdan tahlil qilinadi.*

***Kalit so'zlar:** jonlantirish san'ati, tabiat manzaralari, tashbeh, ichki kechinma, hayot chizgilari.*

## LINGUISTIC ANALYSIS OF POEMS BY ALEXANDER FEINBERG

### ABSTRACT

*This article will tell about the poetry of Alexander Feinberg, a talented artist of Uzbek and Russian people. Also, his poems are linguistically analyzed.*

***Keywords:** the art of revitalization, nature landscapes, tashbeh, internal suppuration, life drawings.*

### KIRISH

O'zbek va rus xalqining ardoqli shoiri Aleksandr Faynberg o'z davrida zamondosh ijodkorlar orasida o'zining go'zal va betakror ijodiy faoliyati bilan ajralib turgan. U nafaqat o'zi yozgan asarlarini, balki tarjima qilgan beqiyos namunalarini o'zbek kitobxonlari qo'lga yetib borishiga o'zining katta hissasini qo'shdi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Aleksandr Faynbergni har eslaganda tabiat, vatan manzaralari singdirilgan she'rlarini, hayot haqiqati bilan bog'liq tarzda ifodalagan pyesalarini eslamaslikning hech ham iloji yo'q desak, mubolag'a bo'lmaydi, albatta. Shoir va yozuvchi Faynberg 1939-yil 2-noyabrda Toshkent shahrida tavallud topgan. Yosh bolalik paytidan tabiatga oshiq, undagi har bir tirik mavjudotga mehribon bo'lgan shoir keyinchalik shulardan ilhomlanib ijod maydoniga ishonch bilan kirib keldi. Insonning eng beg'ubor lahzalari hisoblangan shoirning bolalik yillari Sobiq Jukovskiy ko'chasi bilan chambarchas bog'liqdir. Shoirning ijodiy merosi 15ta she'riy to'plam, ko'plab ssenariylar, tarjimalarni o'z ichiga oladi. Yuqorida aytib o'tilganidek, tabiatga oshiq shoir qalbi har bitta tabiatning kichkina mo'jizasidan ilhomlanib she'rlar bitdi. Hayot bilan hamnafas tarzda har bitta mayda detallarda go'zallik ko'ra olgan shoir o'z kitobxonlarini aynan shu xususiyati bilan o'ziga rom etdi. Mayda detallar haqida gap ketar ekan, uning "Varaq" she'ri gapimizning yaqqol isboti hisoblanadi:

*Yulduzlarni asraydi falak,  
Teran dengiz asrar durlarni.  
Daftarimdan yirtilgan varaq,  
Asragin men yozgan she'rlarni.*

Bu to'rtlikning lingvistik tahliliga to'xtalar ekanmiz, she'rning birinchi bandida jonlantirish san'atining guvohi bo'lamiz, ya'ni falakning yulduzlarni, teran dengizning o'z bag'ridagi qimmatbaho durlarini asrashini eslatib, daftaridan yirtilgan she'rlari yozilgan varaqqa qarab, unga o'z ijod mahsulini asrashini so'raydi. Bu yerda nafaqat jonlantirish san'ati, balki yashirin tarzda kelgan o'xshatish san'atini ham ko'rishimiz mumkin. Ijodkor she'rlarini tahlil qilishda davom etar ekanmiz uning keying to'rtligi:

*She'r nafaqat o'qimoq, uqmoq,  
She'r yurakda yangragan tovush:  
Qutqargandek taygada so'qmoq,  
Tebrangandek ko'llarda qamish.*

Bunda Faynberg she'r haqida to'xtalar ekan, buni faqat oddiy o'qib va uqigan bilan ko'ngil to'lmasligini, she'r bu aslida yurakdan yangragan ovoz, tovush

ekanligini ta'kidlaydi. Oxirgi ikki qatorda ham -dek qo'shimchasi yordamida o'xshatish, ya'ni tashbeh san'atini yuzaga keltirilgan. She'ning keyingi, oxirgi, to'rtligida ham oldingi bandlardagi she'riy san'atlarni uchratishimiz mumkin.

*Har satrim – jon, har she'rim – yurak,  
O'rmon, qushlar, bulutlarga xesh.  
Daftarimdan yirtilgan varaq,  
She'rlarimni asra peshma-pesh.*

Faynbergning bunday oddiy, kichik narsalar orqali go'zal bir she'r yaratishini uning tug'ma qobiliyati bilan bog'lik desak, adashmagan bo'lamiz. Faynberg rus shoirlaridan Sergey Yesenin, o'zbeklardan Usmon Nosirning qisqa so'z bilan olam-olam ma'no ifodalay olish qobiliyatini o'zida mujassam etgan baynalmilal shoirdir. Uning yana bitta ijod mahsuli "Shamol" she'rida ham tabiatning go'zal chizgilari bizni bee'tibor qoldirmaydi.

*Tun. Bolxonaga chiqaman bir pas.  
Navbahor. Xurillab turadi shamol.  
Oqargan sochimga, yuzimga emas,  
Yurakka, yurakka uradi shamol.*

*Yoshlik-u baxt-shodlik, kulfat-g'am bilan,  
Dengiz-u bog'larda yeladi bevosh.  
Shamolning qarisi bo'lmas umuman,  
Shamol hamisha yosh, shamol doim yosh.*

Faynberg – tug'ma iste'dod egasi. She'ning dastlabki satrlaridan shuni bilib olishimiz mumkinki, bu asar ijodkorning keksalik davri mahsuli: "Oqargan sochimga, yuzimga emas". Oqargan soch – keksalikka ishora qilish bilan birga, lirik qahramonning uzoq masofani bosib o'tgani, hayotda ko'p qiyinchiliklarni boshdan kechirganiga va shu sababdan ham shamol aynan qahramonning yuragiga urilishi tasvirlanadi. Ushbu she'ning keyingi bandida zidlash yuzaga kelgan, ham shuningdek she'ning boshidan oxirigacha sifatlashdan mohironalik bilan foydalanganlik diqqatni tortmasligi mumkin emas.

## MUHOKAMA

Aleksandr Faynberg baynalmilal shoir bo'lganligi sababli o'z ijodida ikkala millatning ham urf-odatlari, qadriyatlarini va odamlarga xos bo'lgan xarakterini tasvirlashga harakat qilgan. Yuqorida ta'kidlanganidek, u zamon bilan hamnafas tarzda qalam tebratdi. Uning katta yutug'i tarjima sohasiga ham qo'l urganligidir. Uning tarjimalari – shoir merosining ajralmas bir bo'lagi.

*Asrlar qa'ridan miltirar umid,  
Yurakda og'rigani kabi jarohat –  
Qaydadir saodat sohili majud,  
Unda umrboqiy muhabbat, rohat.*

Umidning miltirashi orqali o'xshatish san'ati noziklik bilan ifodalangan. Shoir xuddi ipga marjon tergan kabi she'rdagi so'zlarni shunday qatorga teradiki, bu yo'nalishdagi she'rni o'qigan har bir insonni o'ziga mahliyo etadi. Sevgi-muhabbat, yoshlikni ulug'lash, hayot tasvirlari shoir she'riyatining asosiy bo'g'inidir. Shoir she'riyatining lingvistik muhokamasiga to'xtalar ekanmiz, u o'z she'rlarida qarama-qarshilik (zidlash), o'xshatish (tashbeh), jonlantirish va sifatlash kabi san'atlaridan unumli ravishda foydalana olgan. Deyarli uning har bir ijod namunasida biz buning guvohi bo'lishimiz mumkin. Zamon bilan hamnafas tarzda yashagan shoir o'sha davr odamlarining qalb kechinmalari, hissiyotlarini ham rangli bo'yoqlar bilan tasvirlagan. Uning nazdida ijod maydonining jang-sinovlari, aslida, og'ir bo'lsa-da, bu maydonda tirik qolish uchun barchasiga bardosh berish eng sharaflil burch edi.

## XULOSA

Shoirning orzulari ushaldi. Bugungi kunda uning nomi, asarlari kitobxonlar orasida qiziqish bilan izlanadi, sevib o'qiladi. Katta-yu kichikning qalbidan birdek joy egallagan Aleksandr Faynbergning hayoti va ijodi hamisha barhayot. Shoir lirikasi she'riyatning go'zal durdonalari bilan bezatilganligi tufayli beqiyosdir.

## ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Xazratqulova, U. (2020). *Aleksandr Faynbergning yorqin xotirasiga*. Yangi O'zbekiston.

<https://yuz.uz/uz/news/aleksandr-faynbergning-yorqin-xotirasiga>

## ОСНОВНЫЕ МЕТОДЫ И ПРИЕМЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ВАРИАТИВНОСТИ В ПОСЛОВИЦАХ

Садикова Эльвира Витальевна

Преподаватель

Термезский государственный университет

(Термез, Узбекистан)

[elvira.sadikova.80@mail.ru](mailto:elvira.sadikova.80@mail.ru)

***Аннотация.** В данной научной статье на материале пословиц с компонентом антропонимом рассматриваются основные методы и приемы исследования вариативности в пословицах, разрабатывается новый подход, который синтезирует лингвистические и фольклористические принципы и понятия. Исследуется вариативность антропонимического компонента в составе пословиц, определяется степень воздействия изменений антропонима.*

***Ключевые слова:** лингвистика, паремии, личное имя, вариативность, народное творчество, антропоним, русский фольклор.*

***Abstract.** In this scientific article, based on the material of proverbs with an anthroponym component, the main methods and techniques for studying variability in proverbs are considered, a new approach is developed that synthesizes linguistic and folklore principles and concepts. The variability of the anthroponymic component in the composition of proverbs is investigated, the degree of impact of changes in the anthroponym.*

***Keywords:** linguistics, proverbs, personal name, variability, folk art, anthroponym, Russian folklore.*

Вариативность это самая востребованная тем в паремиологии, потому что вариативность - сущностная характеристика пословиц паремийного жанра фольклора, а также устойчивых воспроизводимых языковых выражений.



Варьирование есть одной из типологических универсалий фольклора. Пословицы - это не застывшие произведения устного народного творчества, а записи, которые ведутся с давних пор, они отмечают разные изменения - на уровне фонетики, словообразования, лексики, синтаксиса. Вариативности в пословицах способствуют два фактора - традиционность и массовость этого жанра. Первое выражается в использовании пословиц на не малом пространстве, что объясняет творческий характер их употребления. То, что паремии не редко используются обусловлено нужностью в данном жанре, это и приводит к огромному использованию текстов, а следовательно, множественности вариантов. «Незабываемость» пословиц укрепляется тем, что их варианты, не отклоняются от ее структурно-типовой модели, но допускают внутренние изменения в тексте; ср.: В людях Илья, а дома свинья. В людях Ананья, дома каналья. Дома Илья, а в людях свинья. В людях Ананья, а дома каналья. [1:93, 170]. Пословица –это синтаксически оформленное языковое выражение, которое представляет собой поучительное или назидательное суждение о реальности, которое даётся в прямом или переносном смысле.

Значительное внимание уделяется разграничению вариативности и синонимии, тем более что в основе синонимии также лежит варьирование. Как замечено учёными, синонимичные пословицы тяготеют к одной и той же структурно-типовой модели, но синонимический ряд включает разные в этом плане единицы. Ср., например, ряд синонимов с общим смыслом, который можно передать фигурально: У нашего Андрюшки ни полуполушки; Богат Мирошка, а животов — собака да кошка [1:73, 74]. Чтобы разграничить вариативность и синонимию в пословицах рассматриваются различные типы смысловых отношений. Согласно В. П. Жукову, у вариантов пословиц при вариативности компонентов сохраняется семантическое единство, значит характер отношений, связей или зависимостей между вещами и явлениями, составляющих логический и структурнокомпозиционный план паремии, при этом предметно-образный план пословицы может сохраняться полностью или

частично [4:16]. Рассмотренный В. П. Жуковым вопрос семантического тождества и понятие «смыслового центра» совпадает с принципами изучения варьирования в фольклористике, где существуют такие понятия как: «редакция», «запись», «повторные записи», «вариант», «вариация», «версия», «основная версия». Так, варианты есть тексты одного сюжетного типа. Если варьирование значительно, говорят о вариациях, или версиях, для которых характерен свой набор мотивов, имеются существенные образные и композиционные особенности в текстах одного структурно-сюжетного типа [3:107]. Замечено, что принципы исследования, рассмотренные в фольклористике, схожи с лингвистическим описанием структурно-семантических моделей пословиц, выделением инварианта. Если фольклористика для разграничения вариантов и вариаций использует понятие «структурно-сюжетный тип», то паремиология вводит понятие «структурный тип», или «пословичный тип», который близок понятию структурно-семантической модели и вместе с тем вбирает в себя понятие поэтической структуры пословицы и ее обобщенного значения и основных функций [5:28].

Следуя вышеизложенному, можно сделать вывод, что в паремиологии рассматривается синтезирующий подход, который позволит описать языковые изменения в пословицах и установить насколько сильно их влияния на семантическое единство пословиц, образное наполнение и структурнокомпозиционное строение.

Лексическая вариативность онимов, не портит семантическое единство пословиц, не нарушает их предметно-образный и структурно-композиционный план; ср.: Друг всем Макарам (рыболовам), а ухи не видал. Друг всем Макарам, а ухи не видал. Лексическая вариативность оним/апеллятив, сходных по звуковым характеристикам, не нарушает смысловое значение пословиц, но воздействует на предметно-образный план, и ещё вносит смысловые и экспрессивные добавки в значение пословиц.

### Список использованной литературы:

1. Даль В. И. (1989). Пословицы русского народа. В двух томах. Москва: Художественная литература.
2. Даль В. И. (2004). Толковый словарь живого великорусского языка. В четырех томах. Т. II. Москва: ОЛМАПРЕСС.
3. Добровольская, В. Е. (2018). «Ореховая веточка»: редакция сюжетного типа СУС 425С «Аленький цветочек» (сказка староверов Литвы в контексте русской сказочной традиции). Современные методы и подходы в изучении современной народной культуры. Из истории русской фольклористики. Санкт-Петербург, 10, 226–238. стереотип. Москва: Русский язык.
4. Жуков, В. П. (2000). Искусство слова в пословицах и поговорках Словарь русских пословиц и поговорок. 7-е изд.
5. Кокаре, Э. Я. (1978). Интернациональное и национальное в латышских пословицах и поговорках. Р

## ALEKSANDR FAYNBERG O‘ZI KIM?

**Sobirova Asilabonu Aziz qizi**

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Ingliz tili 3-fakulteti 1-bosqich talabasi

E-mail: [asilaaazizovna87@gmail.com](mailto:asilaaazizovna87@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Rusiyzabon bo‘lsa-da o‘zbek millatining yuragidan joy ola olgan Aleksandr Faynberg, aslida, kim ekanligi, uning hayot va ijod yo‘li qanday kechganligi haqida ushbu maqola batafsil ma‘lumot beradi. Faynberg merosining ko‘plab jihatlarini qamrab olish, uning ayni davrdagi ahamiyatini yoritib berish orqali shoir ijodidagi asosiy g‘oyalarni kitobxonlarga singdirish ko‘zda tutiladi. Uning yozgan asarlari o‘zbek kitobxonlari qo‘lida jonlanishi, o‘zbek adabiyotining nodir namunalari rus tiliga o‘girishi ya‘ni uning tarjima mahorati ham talqin qilinadi. Faynberg ijodi qayta o‘rganilib, uni ko‘proq ommaga yoyish maqsadida yosh ijodkorlarlar orasida targ‘ib qilinadi.*

**Kalit so‘zlar:** „Chig‘ir“ she‘riy to‘plami, nodir meros, xalq shoiri, milliylik, insoniylik, tarjimonlik faoliyati, „Yoshlik“, „O‘zgarish“, „Yangi dunyo“, „Yangi Volga“ jurnallari.

### ABSTRACT

*This article gives information about who is Alexandr Feinberg, his personal and academic life in spite of being Russian. Paying attention to the importance of Feinberg by covering his different works in order to impact on readers is the main case. His written works’ reviving with uzbek literature, translation of uzbek national works are interpreted. To release his works to the public more, his creations are being learned better.*

**Keywords:** „Chig‘ir“ poetic collection, unique heritage, national poet, nationality, humanity, translation activity, „Yoshlik“, „O‘zgarish“, „Yangi dunyo“, „Yangi Volga“ journals.

O‘zbekiston shoirlar osmonida eng yorqin yulduzlardan biri bo‘lgan qalbi o‘zbek rus shoiri - Aleksandr Faynberg Arkadevich. Adabiyot ixlosmandlari uchun o‘chmas iz qoldirgan mohir shoir va tarjimon, o‘zbek va rus kitobsevarlarining qalbidan joy egallagan sevimli yozuvchisi 1939-yil 2-noyabrda Toshkentda tavallud topgan. Uning otasi Arkadiy Lvovich, onasi Anastasiya Aleksandrovna bo‘lgan. Shoir ota-onasi Novosibirskdan ko‘chib kelgandan so‘ng tug‘ildi. Uning bolaligi sobiq Jukovskiy ko‘chasida o‘tdi. Shundan so‘ng u butun umri davomida Toshkentda istiqomat qilib, ijod etdi. Faynberg oddiy bolalar kabi yeti yillik maktabni tamomlagach, Toshkent topografik texnikumiga o‘qishga kiradi. Bu texnikumni tamomlagach, Tojikistonga harbiy xizmatni o‘tash uchun yo‘l oladi. U harbiy xizmatni ado etib bo‘lgandan so‘ng Toshkent universitetini (hozirgi Toshkent davlat milliy universitetini) sirtqi filologiya fakultetining jurnalistika bo‘limini tamomlaydi va talabalar ko‘p adadida ishlaydi. Bir necha yillar davomida Toshkentdagi yosh yozuvchilar seminariga rahbarlik qilgan. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida maslahatchi bo‘lib ham faoliyat yuritgan, shuningdek, bu uyushmaning faol a‘zolaridan biri ham bo‘lgan. 1961-yilda Inna Glebovna Koval va Aleksandr Arkadevich Faynberg turmush qurishadi.

U o‘zbek she‘riyatiga o‘tgan asrning ikkinchi yarmida kirib keldi. Uning she‘rlari va to‘plamlari qo‘lma-qo‘l o‘qildi, matnlari asosida qo‘shiqlar kuylandi, asarlari o‘zbek tiliga tarjima qilindi. Faynberg 15dan ortiq she‘riy to‘plamlar, 20dan ziyod multfilmlar va nasriy asarlar muallifi. „Etyud“(1967), „Soniya“(1969), „She‘rlar“(1977), „Olis ko‘prik- lar“, „Ijobat“(1982), „Qisqa to‘lqin“(1983), „Yoyma to‘r“(1984), „Erkin sonetlar“(1990) kabilar shular jumlasidandir. „Ruboiy tori“ dostonida esa o‘zbek choyxonasi mahorat bilan tasvirlangan bo‘lib, bu uning hajviy asarlar turkumiga kiradi. Shoir kinossenariylari asosida esa „O‘zbekfilm“

kinostudiyasida „Jazi-rama oftob tagida“, „Mening akam“, „Qandaharda toblanganlar“, „Tojikfilm“ kinostudiyasida „Jinoyatchi va oqlovchilar“ va bosh-qa filmlar yaratilgan. Uning nodir asarlari o‘z vaqtida Kanada va Izroil kabi xorijiy mamlakatlarning matbuotlarida chop etilgan va kitobxonlar orasida sevib mutolaa qilingan.

Aleksandr Faynberg tarjima sohasida ham mohir bo‘lib, rus kitobxonlariga ko‘plab o‘zbek shoirlarining asarlarini tarjima qilgan. U o‘zbek she‘riyatining mashhur qalam sohiblari A. Navoiy g‘azallari, E.Vohidov, A.Oripov, O.Matjon she‘r va dostonlarini rus tiliga mahorat bilan o‘girdi. Toshkentda chop etilgan „Oqqushlar galasi“ nomli o‘zbek shoirlari ijodidan qilingan tarjimalar jamlanmasi, Moskvada nashr qilingan Erkin Vohidovning „Ruhlar isyoni“ poemasi Faynberg tarjimonlik faoliyatining qo‘sh cho‘qqisi hisoblanadi. Faynberg badiiy merosining katta qismini Rustam Musurmon o‘zbek tiliga o‘giran. Yozuvchining noyob durdonalari bo‘lmish she‘rlari „Yoshlik“, „O‘zgarish“, „Yangi dunyo“, „Yangi Volga“ kabi jurnallarda dunyo yuzini ko‘rgan. Haqiqiy shoir O‘zbekistonni ona-vatanim deya e‘zozlar ekan, unga bo‘lgan mehr-u muhabbat, shukronalik, insoniylik, milliylik o‘z merosida yaqqol aks etadi.

O‘zbekiston xalq shoiri Aleksandr Arkadevich Faynberg o‘limidan bir yil avval ya‘ni 2008-yilda Pushkin medali bilan taqdirlandi. Ming afsuslar bo‘lsinki, qalbi o‘zbek rus shoiri 2009-yilda Toshkentda vafot etdi. Ijodkor tomonidan to‘plangan ikki tomlik asarlar to‘plami vafotidan so‘ng nashr ettirildi. O‘zbekistonda Faynberg xotirasini abadiylashtirish maqsadida adiblar xiyobonida boshqa mumtoz adiblar qatorida Faynberg haykali ham qad rostladi. Adib ijodini kengroq targ‘ib etish maqsadida Faynberg nomidagi maxsus stipendiya ta‘sis etildi. Aleksandr Faynberg xotirasi o‘zbek millati qalbida hamisha barhayot, uning adabiyotimiz ravnaqiga beqiyos hissasi, unutilmas asarlari o‘zbek kitobxonlari uchun haqiqiy xazinadir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <https://yuz.uz/uz/news/aleksandr-faynbergning-yorqin-xotirasi>
2. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr\\_Faynberg](https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg)
3. <https://arboblarn.uz/uz/people/fajnberg-aleksandr-arkadevich>
4. <https://arboblarn.uz/uz/people/fajnberg-aleksandr-arkadevich>
5. Meliqo‘ziyeva Z. (aprel 2023). O‘zbek va rus yozuvchisi Aleksandr Arkadevich Faynberg hayoti, ijodining bugungi kundagi ahamiyati. Scientific Impulse, 1(9), 770–772.
6. O‘ralov U. (dekabr 2022). O‘zbek xalqining chin do‘sti, tarjimon va shoir – Aleksandr Faynberg. Pedagog (4), 745-747.
7. Odinayev A. (iyun 2023). O‘zbek adabiyotida Aleksandr Faynberg ijodining o‘rganilishi. Education and Innovation, 2(6), 118-121.
8. Ibrohimova M. (fevral 2023). Faynberg va uning adabiy borlig‘i. Scientific Impulse, 1(7), 338-339.

## OT ZOTLARINING ZOOTEKNIKAVIY KLASSIFIKATSIYASI

**Ergashev Alisher Anvarjonovich**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali

***Аннотация:** В зависимости от разных пород лошадей, направлений производства и методов использования создано множество пород и групп лошадей. Если пород этого типа в мире больше, то их характеризуют с учетом всех особенностей лошадей, разделяя их на две большие группы: быстрых лошадей и лошадей, передвигающихся со средней скоростью.*

***Annotation.** Many horse breeds and groups have been created depending on different horse breeds, production directions and usage methods. If there are more breeds of this type in the world, they are characterized by taking into account all the characteristics of horses, dividing them into two large groups: fast horses and horses that move at an average speed.*

***Kalit so‘zlar:** ot, zot, naslchilik, yilqichilik, ot sporti, tusi, to‘riq, yengil, ixcham, klasifikatsiya, og‘ir va gavda.*

**Kirish.** Mamlakatimizda yilqichilik, naslchilik va ot sportini rivojlantirish, mahalliy zotdor otlarni ko‘paytirish, zamonaviy beshkurash va polo sport turini ommalashtirish, sohaga to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, shuningdek, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash maqsadida:

Quyidagilar O‘zbekistonda yilqichilik va ot sportini hamda zamonaviy beshkurash va polo sport turlarini yanada rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari etib belgilansin:

- mamlakatda ot sportini hamda zamonaviy beshkurash va polo sport turlarini aholi o‘rtasida eng ommaviy sport turlaridan biriga aylantirish, iqtidorli yoshlarni



tanlash, saralab olish (seleksiya) va ularni professional sportchilar sifatida tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish;

- ot sporti hamda zamonaviy beshkurash va polo sport turlari bo'yicha professional trenerlar, hakamlarni tayyorlash, o'quv-uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish, ot sportining ilmiy-metodologik bazasini yanada kuchaytirish;

- ot sporti hamda zamonaviy beshkurash va polo sport turlari bilan shug'ullanish uchun zarur moddiy-texnik baza va infratuzilmani shakllantirish, shu jumladan ot sporti klublari faoliyatini rivojlantirish, terma jamoalar uchun o'quv-mashq jarayonini samarali tashkil etish;

- Qurolli Kuchlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlariga bosqichma-bosqich ot sporti hamda zamonaviy beshkurash va polo sport turlarini kiritish;

- ot sporti hamda zamonaviy beshkurash va polo sport turlarini rivojlangan mamlakatlar bilan raqobat qila oladigan darajaga yetkazish, xalqaro talab va standartlar asosida mutaxassislarni tayyorlash, yirik xalqaro musobaqalar, jumladan o'smirlar, yoshlar va xotin-qizlar jamoalari o'rtasida jahon va qit'a birinchiliklarini o'tkazish;

- ot sporti hamda zamonaviy beshkurash va polo sport turlarini aholi o'rtasida, shu jumladan ommaviy axborot vositalari orqali keng targ'ib qilish ishlari jadallik bilan olib borilmoqda.

**Ot zotlarining klassifikatsiyasi.** Respublikamiz mintaqalarining iqtisodiy, ishlab chiqarish va tabiiy - ekologik sharoitlariga, yilqilarning turli xil tiplari, mahsulot yo'nalishi va ulardan foydalanish usulariga qarab juda ko'plab zot va guruhlar yaratilgan. Bunday zotlar dunyo bo'yicha 150 tadan ko'proq bo'lsa, shundan 50 dan ortig'i Rossiya va Markaziy Osiyo viloyatlarida yaratilgan. Akademik A. F. Middendorf otlarning barcha xususiyatlarini hisobga olgan holda ikkita katta guruhga *chopqir otlar*, hamda *o'rtacha tezlikda harakat qiluvchi otlarga* bo'ladi.

Lekin bu klassifikatsiya shartli bo'lgani uchun otlardan foydalanishning barcha xususiyati va belgilarini o'z ichiga to'la qamrab olmagan. Binobarin, so'nggi yillarda ot zotlarining ko'payib borishi va ular tomonidan bajariladigan ish jarayonlari turini har xil bo'lishi hamda naslchilik ishlarini muayyan maqsad va rejali olib borilishi, ularni tarqalishi, ishlabchiqarishda foydalanilishi, xo'jalik jihatidan yo'nalishi va boshqalar yilqi zotlarini yanada tor doirada takomillashtirishni taqozo qildi. Shunga ko'ra yuqoridagi ikki guruh yana kichik yo'nalishlarga bo'linadi. Bunda salt miniladigan **chopqir va serharakat ot zotlari** birinchi guruhga kiritilgan bo'lsa, har xil **aravalarga qo'shiladigan va og'ir yuklarni tortuvchi ot zotlari** ikkinchi guruxda kiritildi. Umuman, yilqichilikda asosiy mahsuloti (chopqirligi, aravaga qo'shgan holda foydalanish yoki og'ir yuk tortish hususiyati)ga qarab qabul qilingan yo'nalishlar qat'iy va o'zgarmas bo'lmay, u shartli bo'lishi tabiiy. Chunki tanlash, mashq qildirish, saralash va naslchilik ishlarini yuqori darajada olib borish natijasida ayrim guruxdar orasidagi farqlar ham o'zgarib boradi. Shunga ko'ra adabiyotlarda ba'zi bir yo'nalishdagi ot zotlarining o'rin almashinishi shubhasizdir.

**Yo'rtib yurganda** otlar diagonal bo'yicha ikki oyog'ini, masalan, oldingi o'ng oyog'i bilan ketingi chap oyog'ini, so'ngra oldingi chap oyog'i bilan ketingi o'ng oyog'ini baravar ko'tarib, baravar yerga tashlaydi. Bunday harakat qiladigan otlar soatiga 10-12 km yo'l bosadi. Otchoparda yengil poyga aravasiga qo'shilganda chopqir yo'rtoqi otlar 1 km masofani bir-bir yarim minutda bosib o'tadi.

**Yo'rg'alab yurgan otlarning** harakat tezligi yo'rtib yuradigan otlarning tezligiga teng bo'ladi. O'zbeklar *yo'rg'a ot* deb, yurganda chopmasdan tez va tekis harakatda bo'luvchi otlarni aytishadi. Yo'rg'alab yurishni yo'rtishdan farqi shuki, bunda ot bir gal o'ng tomonidagi ikkala oyog'ini va ikkinchi safar chap tomonidagi ikkala oyog'ini baravar ko'tarib tashlaydi.

**Salt miniladigan ot zotlari.** Bu zotga asosan egarlab miniladigan otlar kiradi. Bu yo'nalishdagi otlar serharakat, chopqir, qotma, boshi yengil, suyaklari ingichka va ixcham bo'ladi. Ular yo'rtib yura olmaydi, lekin sakrab chopganda tez harakatlanadi,

hozirgi vaqtda dunyo bo'yicha salt miniladigan otlarning arabi va toza qonli zotlari mavjud.

*Arabi zoti* eng qadimgi chopqir otlardan hisoblanadi. Hozirgi madaniy ot zotlarining asosiy qismi shu zotni mahalliy zotlar bilan chatishtirilishidan vujudga kelgan. Arabi zot ot unchalik yirik emas, balandligi 150 sm atrofida, tusi kulrang, jiyron va qora aralash bo'ladi. Qurg'oqchilikka va tashqi muhit sharoitlariga chidamli. Bu zot dunyo bo'yicha keng tarqalgan. Asosan Markaziy Osiyo davlatlarida, Kavkaz va Stavropol o'lkasida ko'proq uchraydi.



**Arabi zoti**



**Axaltaka zoti**

*Axaltaka zoti*. Turkmanistonning janubiy tumanlarida yaratilgan. Bu zot ot chopqir, qumli sahrolarda salt minib yurish uchun qulay keladi. Balandligi 152-154 sm, pochasining yo'g'onligi 19 sm. Muhit sharoitiga ancha chidamli. Tusi to'riq, ko'k va qorasaman bo'ladi. Chopish tezligi yuqoriligi bilan ajralib turadi.

*Qorabayir zoti*. Markaziy Osiyo davlatlarida boqiladigan zot otlaridan ko'p jihatdan ustun turadi. Chopqirligi, chidamliligi, chiroyliligi va aravalarga qo'shgan vaqtda yaxshi ishlashi bilan ajralib turadi. Balandligi 152-154 sm. Yirikligi o'rtacha. Tusi to'riq, ko'k va jiyron. Qorabayir otlari O'zbekistonning barcha viloyat va tumanlarida uchraydi. Ayniqsa Jizzah Samarqand viloyatlarida ko'p tarqalgan.

*Laqay zoti* tog' sharoitiga yaxshi moslashgan, janubiy Tojikistonning Yozyovon vodiysida qadimgi o'zbek qabilasi laqaylar tomonidan yaratilgan. Gavdasi kichikroq. Bo'yi 140-142 sm, tanasining uzunligi 144 sm, ko'krak aylanasi 166 sm, pochasi 18 sm. Rangi saman va turli xilda bo'ladi. Asosan Tojikiston viloyatlarida tarqalgan.



**Qorabayir zoti**



**Laqay zoti**

**Chopqir ot zotlari.** Bu yo‘nalishdagi ot zotlari chopqirligi va yo‘rg‘alab tez yurishi bilan boshqa zotlardan f arq qiladi. Bu yo‘nalishdagi otlar *don va budyonniy zoti, kustanay va novokirgiz* kabi ot zotlari kiradi.

**Budyonov zoti** chopqirlik va uzoq masofani qisqa vaqt ichida bosib o‘tishda don zotidan ustun turadi. Bu zot Rostov viloyatida birinchi otliq armiya yilqichilik zavodida yaratilgan. Bundan maqsad don zotining barcha ijobiy xususiyatlaridan foydalangan holda yirik vaznli, mustahkam konstitutsiyaga ega bo‘lgan, poda sharoitiga moslashgan va chidamli zot yaratishdan iborat. Urush yillarida bu zot otlardan keng foydalanilgan. Ular 500-600 km masofani 5-7 kunda bosib o‘tganlar. Bu zot vakillarining bo‘yi 162-163 sm, tanasining qiya uzunligi 164-168 sm, ko‘kragining aylanasi 187-191 sm, pochasi 20-20,5 sm. Rangi sarg‘ish targ‘il, qora va tilla rang. Bu zot Rossiyaning ko‘plab viloyat va zonalarida keng tarqalgan.



**Budyonov zoti**



**Qirg‘iz zoti**

**Novokirgiz (qirg‘iz) zoti** U bundan 4 ming yil avval otchilik bilan shug‘ullangan qirg‘izlarning qadimgi ajdodlarining otlaridan kelib chiqqan. Bu zot Mo‘g‘ul va

qisman sharqona ot zotlarining sezilarli ta'sirini boshdan kechirgan. Qirg'iz otlarida bo'yi kalta, ko'pincha kiyik bo'yinli, katta cho'zilgan tanasi, kam rivojlangan qurloqlari va to'g'ridan-to'g'ri kuchli tanasi, cho'kkan orqasi, qisqa va to'q rangli old va orqa oyoqlari hamda juda kuchli tuyoqlari bor. Ularning o'rtacha balandligi 137 sm, pasterning kengligi 17,5 sm. Teri rangi xilma-xil, boshqalarga qaraganda esa ko'pincha dafna va kulrang otlar mavjud.

Otlar juda kuchli va oddiy, ular deyarli butun yil davomida yaylovda o'tlaydi va qishda ozgina pichan bilan qanoatlanadi. Qirg'iz otlari egar va jabdug'da ishlash uchun moslashgan. Qirg'iz zotini yaxshilash maqsadida toza zotli chavandoz otlari va Don ayg'irlari bilan chatishtirilib tog'da ishlashga moslashgan yangi qirg'iz ot zotini ko'paytirishga erishilgan.

**Yo'rtoqi zotlar. Orlov zoti.** Bu zot Voronej viloyatidagi Xrenovskiy yilqichilik zavodida yaratilgan. Zot vakillarining tusi kul rang qora. Ular yakka, qo'sh holda va uchtalab aravalarga qo'shiladi. Bo'yi 158-161 sm, tanasining qiya uzunligi 160-161 sm, ko'krak aylanasi 180-183 sm, pochasi 18,8-20,3 sm. Bu zot Rossiya viloyatlarida ko'paytiriladi.



**Orlov zoti.**



**Sovet og'ir yuk tortuvchi ot zoti**

**Og'ir yuk tortuvchi ot zotlari.** Og'ir yuk tortuvchi otlar bundan 170-195 yil ilgari rivojlangan kapitalistok mamlakatlarda keng tarqalgan bo'lsa, ular Rossiyaga keyinroq keltirila boshlangan. Bu yo'nalishdagi ot zotlari asosan Voronej, Tambov, Penza va boshqa viloyatlarda urushdan so'ng urchitila boshlangan. Ayrim bu zotli otlar Ivanovo viloyatida mahalliy biyalarni «Kleydesdal» va «Shayr» zotli og'ir yuk tortuvchi ayg'irlar bilan qochirish natijasida yaratilgan. Vakillari yirik vaznli,

temperamenta yuqori juda og'ir yuk tortishga moslashgan. Masalan, «Mudriy» laqabli ayg'iri 8 yoshligida 13870 kg yukni, «Legion» laqabli ayg'ir esa 16400 kg yukni tortganligi adabiyotlardan ma'lum. Bu zot otlarning bo'yi 157-161 sm tanasining qiya uzunligi 162-165 sm, ko'kraginging aylana uzunligi 183-196 sm, pochasinging aylanasini 23-24 sm. Rangi qora, oyog'ining pastki qismi va burnining usta oq jun bilan qoplangan. Ba'zan kul rang, tam qora va targ'il bo'ladi. Asosan Rossiyaning ayrim viloyat xo'jaliklarida ko'paytariladi.

**Xulosa.** Birinchidan tez yuguradigan, tanasi ixcham, yengil, kichik aravalarga qo'shgan vaqtda uzoq masofani qisqa vaqt ichida bosib o'tadigan ot zotlari bularga salt miniladigan va yortoqi ot zotlari ya'ni: arabi, axaltaka, qorabayir, loqay, budyonov, don, yangi qirqiz va ot zotlarini keltirsak bo'ladi.

Ikkinchidan esa sekin yuradigan, og'ir yuklarni torta oladigan, jussasi yirik otlar kiritilgan. Bularga: orlov, viladimir, sovet og'ir yuk tortuvchi, kushum, ardenna va boshqa ot zotlarini kiritishimiz mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Sh.M.Mirziyoyev. "Yilqichilik va ot sportini yanada rivojlantirish hamda zamonaviy beshkurash va polo sport turini ommalashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori PQ-5024 Qaror 2021 yil 11 mart.
2. Xolmirzayev.M. "Yilqichilik va tuyachilik". O'quv qo'llanma."Dizayn-Press" nashriyoti, Toshkent, 2013yil
3. E.D.Nurboyev, Sh.A.Madrahimov. A.A.Ergashev, J.Z.Xalilov "Yilqichilik va tuyachilik". amaliy mashg'ulotlar uchun o'quv qo'llanma."Zamon poligraf" nashriyoti, Toshkent, 2023 yil.
4. James M. Giffin M.D. Horse Breeding. 2015.

## RESULTS OF PROPERTIES OF FIBONACCI NUMBERS

**Noriyeva Aziza Jasur qizi**

Jizzakh branch of National University of Uzbekistan

named after Mirzo Ulugbek,

Department of Applied Mathematics, assistant.

[noriyevaaziza@gmail.com](mailto:noriyevaaziza@gmail.com)

### **ABSTRACT**

*The article presents the properties of Fibonacci numbers with proofs. In addition, some resulting properties are derived from the properties of Fibonacci numbers. The article can be used by students of higher educational institutions and those preparing for the Olympiad in mathematics.*

**Keywords:** *Fibonacci numbers, recurrence relation, golden ratio, major ratio, minor ratio.*

### **INTRODUCTION**

It is known that  $u_n = u_{n-1} + u_{n-2}$  ( $n \geq 3$ ) with  $u_1 = u_2 = 1$ , the sequence determined by means of recurrent equality is called Fibonacci series, and its terms are called Fibonacci numbers. The phrase Fibonacci numbers can be found in the nineteenth-century works devoted to interesting mathematics by Eduard Lucca. Fibonacci (this word is shortened from the Italian words "filius Bonacci", which means the son of Bonacci) is the nickname of Leonardo Pisanoski, who lived in the city of Pisa in Italy in the 12th and 13th centuries. Bonacci was engaged in trade in Italy and Algeria. Leonardo received his primary education in Algeria. He had learned the Indian positional decimal system and zero from his Arabic teachers.





$$\begin{aligned}
 u_n(u_n + u_{n+1}) &= u_{n+1}(u_n + u_{n-1}) + (-1)^{n+1} \\
 u_n u_{n+2} &= u_{n+1}^2 + (-1)^{n+1} \\
 u_{n+1}^2 &= u_n u_{n+2} + (-1)^n.
 \end{aligned}$$

*Property 7.*  $u_1 u_2 + u_2 u_3 + u_3 u_4 + \dots + u_{2n-1} u_{2n} = u_{2n}^2$

$$\begin{aligned}
 &u_2(u_1 + u_3) + u_4(u_3 + u_5) + \dots + u_{2n-1}(u_{2n-2} + u_{2n}) = \\
 &= (u_3 - u_1)(u_1 + u_3) + (u_5 - u_3)(u_3 + u_5) + \dots \\
 &\dots + (u_{2n} - u_{2n-2})(u_{2n} + u_{2n-2}) = u_3^2 - u_1^2 + u_5^2 - u_3^2 + u_7^2 - u_5^2 + \\
 &+ \dots + u_{2n}^2 - u_{2n-2}^2 = u_{2n}^2
 \end{aligned}$$

*Property 8.*  $u_1 u_2 + u_2 u_3 + u_3 u_4 + \dots + u_{2n} u_{2n+1} = u_{2n+1}^2 - 1$

*Property 9.*  $nu_1 + (n-1)u_2 + (n-2)u_3 + \dots + 2u_{n-1} + u_n =$

$$\begin{aligned}
 &= (u_1 + u_2 + u_3 + \dots + u_n) + (u_1 + u_2 + u_3 + \dots + u_{n-1}) + (u_1 + u_2 + u_3 + \\
 &+ \dots + u_{n-2}) + \dots + u_1 = u_{n+2} - 1 + u_{n+1} - 1 + u_n - 1 + u_{n-1} - 1 + u_1 = \\
 &= u_{n+4} - (n+3)
 \end{aligned}$$

*Property 10.*

$$\begin{aligned}
 u_1 + 2u_2 + 3u_3 + \dots + nu_n &= (n+1)(u_1 + u_2 + u_3 + \dots + u_n) - \\
 (nu_1 + (n-1)u_2 + (n-2)u_3 + \dots + 2u_{n-1} + u_n) &= \\
 = (n+1)(u_{n+2} - 1) - (u_{n+4} - (n+3)) &= nu_{n+2} - u_{n-3} + 2
 \end{aligned}$$

*Property 11.*  $u_n = \sum_{k=1}^n C_{n-k-1}^k$

*Property 12.*  $u_n = \frac{1}{\sqrt{5}} \left[ \left( \frac{1+\sqrt{5}}{2} \right)^n - \left( \frac{1-\sqrt{5}}{2} \right)^n \right]. [1]$

## RESULTS

$$u_{n+2}^2 - u_{n+1}^2 = u_n u_{n+3}$$

Because

$$u_{n+2}^2 - u_{n+1}^2 = (u_{n+2} - u_{n+1})(u_{n+2} + u_{n+1}) = u_n u_{n+3}.$$

Likewise

$$u_{n+m} = u_{n-1} u_m + u_n u_{m+1}$$

From this

$$u_{n+m} = u_{n+1} u_{m+1} + u_{n-1} u_{m-1}$$

## CONCLUSION

It can be seen that Fibonacci numbers have an incomparable role in the solution of many natural and life problems. In addition, Fibonacci numbers are also related to the golden section. The golden section of a given section is defined as dividing it into two such parts. here, the ratio of the length of the entire section to the length of the large part and the ratio of the length of the large part to the length of the small part are mutually equal. It is not difficult to determine that the value of this ratio is equal to  $\alpha_1$ . The interesting thing is that

$$\lim_{n \rightarrow \infty} \frac{u_{n+1}}{u_n} = \alpha_1$$

will be.

## REFERENCES

1. Н.Т.То‘rayev, I.Azizov. Matematik mantiq va diskret matekatika. Toshkent. 2011.
2. Noriyeva A. O‘‘ QUVCHILARNING KREATIVLIK QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA NOSTANDART MISOL VA MASALALARNING AHAMIYATI //Журнал математики и информатики. – 2022. – Т. 2. – №. 1.
3. Meliyeva Mohira Zafar qizi, & Noriyeva Aziza. (2023). KO‘PHADLARNI HOSILA YORDAMIDA KO‘PAYTUVCHILARGA AJRATISH . *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 20(3), 117–120. Retrieved from <http://newjournal.org/index.php/01/article/view/5708>
4. Нориева А. Koshi tengsizligi va uning qiziqarli masalalarga tadbiqlari //Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 361-364.

5. Рабимкул А., Иброҳимов Ж. Б. ў., Пўлатов, БС and Нориева, АЖ қ. 2023. АРГУМЕНТЛАРНИ ГУРУҲЛАРГА АЖРАТИБ БАҲОЛАШ УСУЛИДА КЎП ПАРАМЕТРЛИ НОЧИЗИҚЛИ РЕГРЕССИЯ ТЕНГЛАМАЛАРИНИ ҚУРИШ МАСАЛАЛАРИ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 174-178.
6. Abdunazarov R. Issues of effective organization of practical classes and clubs in mathematics in technical universities. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. Current Issue: Volume 2022, Issue 3 (2022) Articles.
7. Абдуназаров Р. О. численной решение обратной спектральной задачи для оператора Дирака //Журнал “Вопросы вычислительной и прикладной математики. – №. 95. – С. 10-20.
8. Отакулов С., Мусаев А. О. Применение свойства квазидифференцируемости функций типа минимума и максимума к задаче негладкой оптимизации //Colloquium-journal. – Голопристанський міськрайонний центр зайнятості, 2020. – №. 12 (64). – С. 48-53.
9. Мусаева А. О. Зарубежная система финансирования образовательных учреждений //Наука и новые технологии. – 2011. – №. 10. – С. 75-81.
10. Мусаев А. О. Интеграция образовательных систем России и Дагестана XIX века //Известия Дагестанского государственного педагогического университета. Психолого-педагогические науки. – 2010. – №. 3. – С. 21-24.

## МКЦ АСОСИДА ТАБЛЕТКА ИШЛАБ ЧИҚИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ

Дилноза Шавкат қизи Хамдамова<sup>1</sup>,

Аипашша Джаббаровна Таджиева<sup>2</sup>,

Васила Кабилевна Умарова<sup>1</sup>,

Махмут Темурович Примкулов<sup>1</sup>

Тошкент кимё технология институти<sup>1</sup>

Тошкент фармацевтика институти<sup>2</sup>

[dilnozaxamdamova1989@gmail.com](mailto:dilnozaxamdamova1989@gmail.com), [aipashshatadjiyeva@mail.ru](mailto:aipashshatadjiyeva@mail.ru),  
[vumarova65@gmail.com](mailto:vumarova65@gmail.com), [mprimkulov@mail.ru](mailto:mprimkulov@mail.ru)

### АННОТАЦИЯ

Доривор ўсимликни чиқиндисидан махсус технология асосида олинган микрокристаллик целлюлозани (МКЦ-Л) тайёр дорилар технологиясида жумладан, таблетка ишлаб чиқаришда тўлдирувчи ва парчаланишини яхшиловчи модда сифатида синовдан ўтказилди. Таблетка ишлаб чиқаришда МКЦ-Л ни аҳамияти каттадир. Олинган натижалар танланган таркиб ва технологияни мақсадга мувофиқлигини кўрсатди.

**Калит сўзлар:** МКЦ-Л, рутин, ёрдамчи моддалар, прессланадиган модданинг технологик хоссалари, технология, таблетка, сифат кўсаткичлари.

### ABSTRACT

*Microcrystalline cellulose (MCC - L) obtained from the waste of a medicinal plant based on a special technology was tested in the technology of finished drugs, including as a filler and a disintegrating agent in the production of tablets. MKTs-L is of great importance in tablet production. The obtained results showed the appropriateness of the selected content and technology.*

**Key words:** MCC-L, rutin, excipients, technological properties of the pressed substance, technology, tablet, quality indicators.

## КИРИШ

Маҳаллий хом ашёлардан унумли фойдаланилган ҳолда юқори терапевтик таъсирга эга бўлган янги дори турларини ва ёрдамчи моддаларни таклиф этиш, ички имкониятлардан тўлиқ фойдаланиб, турли фармакологик таъсирга эга бўлган дори-дармонларни ишлаб чиқаришни ташкил қилиш доришунос олимларнинг долзарб муаммоларидан ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикаси ҳукумати турли саноат корхоналарини, жумладан маҳаллий фармацевтика саноатини ривожлантиришга ҳам катта эътибор бериб келмоқда. Фармацевтика саноатига янги ёрдамчи моддаларни кириб келиши дори турини яна биттага оширади. Шундай ёрдачи моддалардан маҳаллий хом ашёдан олинган қаттиқ дорилар технологияси учун ишлатишга таклиф этилган МКЦ-Л ни киритишимиз мумкин.

## АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

МКЦ-Л ни таблеткалар технологиясига тўлдирувчи сифатида тадбиқ этиш бўйича илмий изланишлар олиб бориш ишнинг мақсади қилиб белгиланди.

Таблетка сифати прессланадиган массанинг физик-кимёвий ҳамда технологик хоссаларини ўрганиш, қўлланиладиган ёрдамчи моддалар тури ва миқдорини илмий асосда танлашга бевосита боғлиқ [1]. Таблетка таркибини танлашда субстанция (рутин) ва турли ёрдамчи моддалар аралашмасини технологик хоссалари: фракцион таркиб, сочилувчан зичлик, сочилувчанлик, қолдиқ намлик ва сифат кўрсаткичлар тегишли адабиётларда келтирилган усуллар бўйича ўрганилди [2,3]. Тўғридан-тўғри пресслаш орқали таблетка технологиясини ишлаб чиқиш маҳсулот тан нархини камайиши билан бирга технологик жараён бир мунча содалашади. Рутин субстанциясини турли ёрдамчи моддалар қўшиб тўғридан-тўғри пресслаш орқали таблетка олиш бўйича илмий изланишлар олиб борилди. Ёрдамчи моддалардан тўлдирувчилар (МКЦ-Л, сут қанди, қанд, глюкоза, кальций карбонат), ғовакловчилар

(картошка ва маккажўхори крахмали) ва антифрикцион моддалар (стеарин кислота, кальций ва магний стеаратлар, тальк) гуруҳига оид бўлган моддалар ўзаро тури ва миқдори билан фарқланган 18 та таркиб асосида изланишлар олиб борилди. Массаларнинг технологик хоссалари ва андоза таблеткаларнинг сифат кўрсаткичлари аниқланди. Таблеткаларни тўғридан-тўғри пресслаш усулида олиб борилган тажриба натижаларига кўра, ёрдамчи моддалар қўшиб тайёрланган прессладиган массаларнинг технологик хоссалари бир мунча ижобий бўлса ҳам, олинган таблеткаларнинг сифат кўрсаткичлари стандарт талаблар даражасида бўлишини таъминламади.

Таблеткаларнинг ўртача оғирликлари 0,16-0,25г бўлган ҳолларда таблеткаларнинг ўртача оғирликлардан четланиши  $\pm 5,88\%$ , синишга нисбатан қаттиқлиги 30-40 Н бўлса, ишқаланишга нисбатан қаттиқлиги - 95,4- 96,0% ни ташкил этди. Бу эса ўз навбатида танланган таркиб ва технологияларни корхоналарда ишлаб чиқаришни ташкил этишда баъзи муаммоларни келтириб чиқариши мумкин. Юқоридагиларни инобатга олган ҳолда таблеткаларни ёрдамчи моддалар қўшиб тўғридан-тўғри пресслаш бўйича олиб борган изланишларни самарадорлиги пастлигини эътиборга олган ҳолда нам дондорлаш орқали таблетка олиш мақсадга мувофиқ деб топилди.

Ҳозирги вақтда оммалашиб бораётган барча технологик кўрсаткичлар бўйича кўп жиҳатдан таблетка тайёрлаш учун мос келадиган МКЦ-Л дан фойдаланиш мақсадга мувофиқ бўлиб ҳисобланди, чунки бу модда доривор ўсимликлар чиқиндиларидан олинадиган бўлиб, маҳаллий ёрдамчи моддалар туркумига киради. Тажрибалар рутин таблеткаси МКЦ - Л асосида ҳамда қанд, кальций карбонат ва крахмал каби ёрдамчи моддалар билан таққослаш орқали олиб борилди. Лекин, МКЦ-Л нинг қониқарли технологик хоссаларини инобатга олиб, турли технология асосида рутин таблеткасини таҳлил қилишни лозим топдик. Бунинг учун рутин билан МКЦ -Л яхшилаб аралаштирилди ва тўғридан-тўғри прессланди. 2-ҳолатда аралашма сув билан, 3-ҳолатда эса 5% крахмал шилимшиғи билан намланди. Уларнинг технологик хоссалари, андоза

таблеткаларнинг сифат кўрсаткичлари ўрганилди. Олинган натижалар массаларнинг технологик хоссалари, таблеткаларнинг сифат кўрсаткичлари талаб даражасида бўлиб, бир-бирига яқин. Аммо, 3-намундаги массанинг таблетканинг сифати бир мунча авзалликларга эга бўлгани учун кейинги изланишларга асос қилиб олинди.

## НАТИЖАЛАР

Юқоридагиларни инобатга олиб, қуйидаги таркибларда прессланадиган массалар тайёрланди. (1-жадвал).

### 1-жадвал

#### Рутин таблеткасининг ўрганилаётган таркиблари

Ишлатилган ингредиентлар номи	Рутин ва ёрдамчи моддалар миқдори,г			
	Таркиблар рақами			
	1	2	3	4
Рутин	0,0200	0,0200	0,0200	0,0200
Кальций карбонат	0,1500	--	--	--
Қанд	--	0,1500	--	--
Крахмал	0,0775	0,0775	0,0775	0,0775
МКЦ-Л	- -	- -	- -	0,1500
Кальций стеарат	0,0025	0,0025	0,0025	0,0025
Ўртача оғирлик	0,2500	0,2500	0,2500	0,2500

Майдаланган ва тешигининг диаметри 200 мкм элакдан эланган рутин ва тўлдирувчи моддалар яхшилаб аралаштирилди сўнгра 5% крахмал шилимшиғи билан мўътадил нам масса ҳосил бўлгунча намланди (100 г массага 8-30 г) масса ҳарорати (50-60<sup>0</sup>С) қуритгич жавонида мўътадил намликкача қуритилди ва тешигини диаметри 1 мм бўлган элак ёрдамида донадорланди. Тайёр гранула 125 мкм бўлган элакдан ўтказилган кальций стеарат ва крахмал аралашмаси

билан упаланди. Грануланинг технологик хоссалари ўрганилди. Олинган натижалар 2-жадвалда келтирилган.

2 – жадвал

**Рутин прессланадиган массасининг технологик хоссалари  
ва таблетканинг сифати бўйича олинган натижалар**

Ўрганинилаётган кўрсаткичлар, ўлчов бир- лиги	Олинган натижалар			
	Таркиблар			
	Кальций карбонат	Қанд упаси	Крахмал	МКЦ- Л
Фракцион таркиб, мкм,%				
+1000	4,75	1,93	3,50	3,75
- 1000 + 315	68,32	58,01	64,89	67,02
- 315 + 250	7,69	7,80	13,26	10,39
- 250 + 125	6,59	19,64	10,32	10,49
- 125	12,65	12,62	8,03	8,35
Сочилувчан зичлик, кг/м <sup>3</sup>	933±21,55	737±18,34	565±15,20	540±13,70
Сочилувчанлик, ·10 <sup>-3</sup> кг/с	16,67±2,52	12,50± 1,39	8,33±1,01	7,40±1,02
Зичланиш кўрсаткичи	2,40±0,80	1,74±0,45	2,28±0,50	2,12± 0,41
Прессланиши, Н	40,0±1,24	61,25± 2,88	35,0±0,79	100,0±2,87
Қолдиқ намлик, %	1,5±0,14	2,2±0,29	10,0±0,86	4,0±0,14
II Таблетка сифати:				
Ташқи кўриниши	Қониқарли	Қониқарли	Қониқарли	Қониқарли
Ўртача оғирлик ва ундан четланиш; г, %	0, 2380±2,46	0,2420±4,12	0,2456±2,78	0, 2510±3,0
Қатиклик:	98,75±1,71	99,60±2,14	96,46±1,79	99,79±1,2
-ишқаланишга,%				
- синишга, Н	45,0±2,04	46,0±3,17	25,0±2,34	51,0±2,41
Парчаланиши, дақиқа	6,0±0,07	4,7 ±0,1	3,0±0,10	7,0±0,03



2-жадвалдан шуни кўриш мумкин-ки, барча намуналардаги гранулаларнинг фракцион таркиби бир-бирига яқин, аммо сочилувчанлик, сочилув-чан зичлик, зичланиш кўрсаткичлари сезиларли даражада фарқланса ҳам, массалар ижобий технологик хоссаларни намоён этди. 1 -таркибли массанинг сочилувчанлиги, сочилувчан зичлиги ва прессланиши 2 ва 3-таркибдаги гранулаларга нисбатан фарқланишида кальций карбонат-нинг таъсири бўлса, 3 -таркибли гранулада қолдиқ намлик кўрсаткичи 1 ва 2 -таркибли массага нисбатан 4 баробар катта бўлиши, крахмални таъсири деб ҳисоблаш мумкин. Таблеткаларни сифатига эътибор берилса, крахмал асосида олинган таблетка синишга ва ишқаланишга бўлган қаттиқлиги бўйича талабга жавоб бермаслиги кузатилди. Қанд асосида олинган таблеткаларни ташқи кўриниши босим кучи таъсирида МХ талабига жавоб бермаслиги тажрибалар асосида исботланган. /4/. Кальций карбонат ва МКЦ -Л асосида тайёрланган таблеткалар физик-механик кўрсаткичлари бўйича талабга жавоб беради.

## МУҲОКАМА

Рутин таблеткаси учун тўлдирувчи сифатида кальций карбонат ва МКЦ-Л ни ишлатиш имконияти борлиги олиб борилган изланишлар асосида исботланди. Рутин таблеткаси учун кальций карбонат ва МКЦ-Л асосида прессланадиган массалар тайёрланди. Таблетканинг ўртача оғирлиги 0,25 г дан 8 ммли (кальций карбонат асосида тайёрланган масса) ва 9 ммли (МКЦ-Л асосида тайёрланган масса) прессланди. Икки ҳолатда ҳам пресслаш жараёни бир меъёردа бўлиб, ДФ талабларига жавоб берадиган таблеткалар олиш имкониятини яратди. (2.-жадвал).

## ХУЛОСА

Янги маҳаллий ёрдамчи модда асосида рутин таблеткасини таркиби ва технологияси таклиф этилди. Прессланадиган массасининг (гранула) технологик хоссалари ва тайёр маҳсулотнинг физик-механик кўрсаткичлари:

ташки кўриниши, чинлиги, ўртача оғирлик ва ундан четланиши тегишли МХ бўйича олиб борилди. Олинган натижалар МХ талабига жавоб бериши аниқланди.

### АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Мадрахимов Ш.Н., Рахимова О.Р., Котенко Л.Д., Маматханов М.А., Сагдуллаев Ш.Ш. (2016). Разработка технология получения таблеток цинарозида и их оценка качество. *Фармацевтический журнал*. №3, 75-79.
2. Государственная Фармакопея республики Узбекистан. Ташкент.2021 Режим доступа: [www.femb.ru](http://www.femb.ru)
3. Меньшутина Н.В. (2012). Иновационные технологии и оборудование фармацевтического производства. Издательство БИНОМ, Москва. 1-2.
4. Махкамов S.M., Махмуджонова K.S. (2010). Таувор дори тurlari texnologiyasi. Toshkent.. В. 367. (darslik)
5. Умарова В., Марданов А., Хамдамова Д., Акмалова Г., Примкулов М. (2020). Получение МКЦ из бахчевой культуры. *Химия и химическая технология*. №1. 34-37.
6. Кочаева Л.С., Карманов А.П. Новые способы получение МКЦ // *Химия растительного сырья*. Выпуск №2 Казань.: 2014г. С.-140.
7. Норматов Г.А., Примкулов М.Т. Изучение процесса получения целлюлозы из стеблей различных однолетних бахчевых культур. *Universum: Технические науки*. Электронный научный журнал. Выпуск 11(56) ноябрь 2018 г. г. Москва, РФ. ООО «МЦНО».
8. Сарымсаков А.А. и др. Диспергирования микрокристаллическая целлюлоза и гидрогели на её основе. *Химия растительного сырья*. –2004. -№2.– С. 11-16.

9. Атаханов А.А., Сарымсаков А.А., Рашидова С.Ш. Наноцеллюлоза: получение, свойства и возможные области применения (обзорная статья) // Химия и химическая технология. - Ташкент, 2009. - №2. - С.32-41
10. Кушнир Е.Ю., Аутлов С.А., Базарнова Н.Г. Получение микрокристаллической целлюлозы непосредственно из древесины под воздействием микроволнового излучения. Химия растительного сырья, 2014. № 2. С. 41-50.
11. Момзякова К.С., Дебердеев Т.Р., Вершинин М.С., Лексин В.В., Момзяков А.А., Дебердеев Р.Я. Получение наноцеллюлозы из недревесного растительного сырья. Химия растительного сырья. – 2019. - №3. – С. 15-21.
12. Nekson M.L., O'Connor R.T. // J. Appl. Polym. Sci. 1964. Vol. 8. P. 1311-1324  
Ioelovich M., Leykin A., Figovsky O., Stu
13. Konerinskiy N.N. Kompleksnaya himicheskaya pererabotka drevesinyi [Complex chemical processing of wood]. Uchebnik dlyavuzov. Izdatelstvo AGTU, 2002, pp.347
14. Autlov S.A., Bazarnova N.G., Kushnir E.Yu. Mikrokrystallicheskaya tsellyuloza: struktura, svoystva, poluchenie i oblasti primeneniya. [Microcrystalline cellulose: structure, properties, production and applications]. Himiya rastitelnogo syirya, 2013, no.3, pp. 33-41
15. Государственная фармакопея Российской Федерации, XIII изд., Т.1. Москва, 2015; [Электронный ресурс] URI. <http://femb.ru/femi>.
16. Махкамов С.М. Основы таблеточного производства. – Т.: - 2004. – 154 с.

## TURIZM GEOGRAFIYASÍNÍN ILMIY TIYKARLARÍNÍN ÚYRENILIWI

**Qosimbetov Jandulla Satulla ulı**

**Rajabova Mardona Azimjon qızı**

**Jiyemuratov Asadbek Seytmurat ulı**

**Shamshetova Dilbar Mirzabay qızı**

Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogika institutı studentleri

### ANNOTACIYA

*Geografiya ilimi turizmniń izertleniwindegi dominant ilim bolıp esaplanıp kelinmekte. Sebebi geografiya ilimi hámde turizm bir-biri menen tıǵız baylanıslı. Turizm geografiyası – bul mámlekettiń imkánıyatların analiz etiwshi hám bulardan durıs paydalanıwdı úyretiwshi pán. Bul pán turistik resurslardıń jaylasıwı, olardıń rawajlanıwına tásir etiwshi faktorlar, turistik rayonlastırıwdıń tiykarların úyrenedi.*

**Tayansh sózler:** *Turizm, Turizm geografiyası, UNWTO, turizm klassifikatsiyası, ishki turizm, xalıqaralıq turizm.*

### ABSTRACT

*Geography is the dominant discipline in the study of tourism. This is because geography and tourism are closely related. Tourism geography is a science that analyzes the country's tourism opportunities and studies their proper use. This science studies the location of tourist resources, the factors affecting their development, and the development of tourist zoning*

**Key words:** *Tourism, Tourism geography, UNWTO, tourism classification, domestic tourism, international tourism.*

## KIRISIW

Jáhán turizm shólkeminiń (UNWTO) maǵlıwmatlarına kóre, dúnya júzi boyınsha jumıs benen bánt bolǵan xalıqtıń 8 payızǵı turizm tarawında xızmet kórsetiwshi jumısshılarınıń úlesine tuwrı keledi. Sonday-aq, islep shıǵarıw hám xızmet kórsetiw tarmaqlarına ajratılǵan investiciyalardıń 7 payızǵı, ulıwma tutınıw qarjılarınıń 11 payızǵı turizmniń úlesine tuwrı keledi. Búgingi kúnde turizm mámleketler ǵaznasına joqarı dáramat keltiriwshi tarmaq sıpatında qalıplesip kelmekte.

Házirgi dáwir ilim-texnikasınıń rawajlanıwı turizm tarawına da óz tásirin kórsetip atır. Eger turizmniń global rawajlanıw dáwiriniń baslanıwında, yaǵniy 1950-jıllarda, dúnya boyınsha turistler sanı 2,5 mln. adamdı quraǵan bolsa, 2013-jılda (jáhán turistlik shólkeminiń maǵlıwmatına qaraǵanda) dúnya boyınsha turistler sanı 1 087 mlrd. tan asıp ketti hám turizmnen keletuǵın dáramat 1,4 trillion dollardan zıyattı quradı [Krujalın, 2014].

Jáhán turistlik shólkemi maǵlıwmatı boyınsha 2020-jılda keletuǵın xalıqaralıq turistler sanı 1,36 mlrd, 2030-jılda bolsa 1,8 mlrd. adamdı quraydı. Házirgi waqıtta turizm jáhán kóleminde tez pátler menen rawajlanıp atırǵan tarmaqlardan biri bolıp, ol jáhán jalpı dáramatınıń 1/10 bólegin, xalıqaralıq investiciyalardıń 11 % ten aslamin qurap, islep shıǵarıwda bolsa hár toǵızdan bir adamnıń jumıs ornı menen támiyinlep atır. Sonday-aq, sońǵı jıllarda dúnya júzi boyınsha miynet resurslarınıń 10 % i tikkeley turizm menen shuǵıllanıp atır.

## TIYKARǴÍ BÓLIM

Turizmniń geografıyalıq úyreniliwi degende turistik obyektlerdiń geografıyalıq tarqalıwı, dúnya kóleminde hárekettegi turistlerdiń sanı, turizm túrleri hám maqsetleriniń aymaqlıq ózgeshelikleri, turizmniń mámleket ekonomikasında tutqan ornı h.t.b. belgilerdiń úyreniliwi túsiniledi.

Turizm geografıyası pání geografıyanıń iliminiń tómendegi tarawları menen baylanıslı túrde rawajlanadı:

- demografiya – xalıqtıń demografiyalıq hám social-ekonomikalıq evolyuciyası haqqındaǵı ilim;
  - ekonomikalıq geografiya – dúnya júzi regionlarınıń ekonomikalıq resursları haqqındaǵı ili;
  - mámlekettanıw – Jer sharı regionları hám kontinentlerdiń xojalıǵı haqqındaǵı ilim;
  - tábiyiy geografiya – turizmniń rawajlanıwına tásir etiwshi tiykarǵı faktorlar bolǵan, tábiyiy, klimatlıq, salamatlandırıw resursları haqqındaǵı ilim;
- Tariyxıy geografiya – turizmniń rawajlanıwındaǵı tiykarǵı faktor bolıp esaplangan tariyx, mádeniyatlar tariyxı haqqındaǵı ilim;

Turizm klassifikatsiyası turizm iskerliginiń taksonomikalıq tiykarlarına qaray tiplerge, kategoriyalarǵa, túrleri hám kórinislerge ajratıladı. Soǵan kóre, bazı alımlar pikirinshe, turizm óziniń uılıwmalıq qásiyetleri hám funkciyalarına qaray úsh tipke ajratıladı; 1. Emleniw, 2. Den sawlıqtı tiklew-sport, 3. Tanısıw turizmi (Erdavletov-2000). Házirgi zamanda turizmdi klassifikatsiyalawda eń dáslep onıń tiykarǵı tıp mánisin ashıp beretuǵın belgilerdi anıqlaw maqsetke muwapıq bolıp tabıladı. M.R.Usmanovtıń pikirinshe turizmniń tıp mánisin geografiyalıq belgiler, turistik aǵımlardıń baǵdarı, maqseti, qarǵı menen támiyinlengenligi, háreketleniwı, jaylasıwı, turistler sanı, shólkemlestirilgen hám huqıqıy tiykarlar ashıp beredi (M.R.Usmanov-2020). Ol Turizmdi geografiyalıq belgileri boyınsha 2 túрге ajratadı. Bular tómendegishe;<sup>1</sup>

- ishki turizm;
- xalıqaralıq turizm;

Ishki turizm – degende belgili bir mámlekettiń óz aymaǵı sheńberinde xalıq tárepinen turistlerge xızmet kórsetiwı túsiniledi. Bunday turistler jergilikli turistler kategoriyasına kiredi.

Xalıqaralıq turizm – degende bolsa, qandayda bir mámleketke basqa mámleket turistleriniń barıwı hám olarǵa xızmet kórsetiliwı túsiniledi. Bunday turisler xalıqaralıq turistler dep ataladı.

---

<sup>1</sup>uli Eshiniyazov B. A., ulı Saliyev E. P., Egamberdiev F. B. TURIZM TARAWLARINIŃ ILIMİY TIYKARLARINIŃ ÚYRENILIWİ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 4. – C. 821-825.

Xalíqaralıq turizm háreketleriniń ekonomikalıq analizi nátiyjesine kóre, dúnya júzi boyınsha turistik keliwlerdiń 11 % i Franciyağa tuwrı keledi. Evropa regionı boyınsha xalíqaralıq turistik keliwlerdiń 20 % i tuwrı keledi. Franciya 1990-jıllardan baslap turistlerdi qabıl etiw boyınsha birinshi orında kelmekte. Turistler eń kóp baratuǵın orınlar tómendegiler: Notr-Dam (Parij), Les Fontenblo, Disneylend, Bazilika Sakre-Kyor (Parij), Sen-Maritim, Luvr, Versal sarayı parki, Eyfel minarası h.t.b.<sup>1</sup>

Basqa bir mámleket aymaǵında turistlerge turizm boyınsha xızmet kórsetiw shıǵıwshı turizm dep ataladı. Usı sıyaqlı turistik xızmetlerdi óz mámleketi aymaǵında shet ellik turistlerge kórsetilse bunday turizm kiriwshı turizm delinedi.

### **JUWMAQ**

Turizm geografıyası pániniń wazıypası turistik resurslardı bahalaw, olardıń ekonomikalıq-geografıyalıq imkánıyatlarınıń rawajlanıwın úyreniwden ibarat. Bul pániniń izertlew obyektı turistik orınlardıń geografıyalıq jaylasıwı bolıp esaplanadı.

### **ÁDEBIYATLAR DIZIMI: (REFERENCES)**

1. Egamberdiev F., Eshiniyazov B. A. TURIZMNIŃ RAWAJLANIWINDAǵI GEOGRAFIYALÍQ KÓRSETKISHLER //INTERNATIONAL CONFERENCES. – 2022. – T. 1. – №. 21. – C. 247-250.
2. Egamberdiev F. B., ulı Eshiniyazov B. A. TURIZM TARAWLARINIŃ GEOGRAFIYALÍQ TIYKARLARÍ //INTERNATIONAL CONFERENCES. – 2022. – T. 1. – №. 21. – C. 243-246.
3. Iskenderov A. B., ulı Eshiniyazov B. A. ÓZBEKSTAN AYMAǵINDA TURIZMNIŃ JAŃA TÚRLERINIŃ RAWAJLANÍWÍ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 6. – C. 217-220.

---

<sup>1</sup> Iskenderov A.B., Uzaqbaev Q.K., Sharibaev A.m., Djanabaev I.B. “Turizm hám rekreaciyalıq geografiya” páninen oqıw-metodikalıq qollanba. Nókis- 2019, 128 bet.

4. Iskenderov A. B., uli Eshiniyazov B. A. TURIZMDI RAWAJLANDIRIWDA TURIZM-REKREACIYALIQ RESURSLARDIN AHMIYETI //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 6. – C. 212-216.
5. Iskenderov A.B., Saliev E.P., Eshiniyazov.B.A. GEOGRAFIYA SABAQLARINDA TURIZM TARAWLARININ UYRENILIWII//Aniq va tabiiy fanlarni masofaviy oqitishning dolzarb masalalari. – 2023. C.125-128.
6. Iskenderov A.B., Uzaqbaev Q.K., Sharibaev A.m., Djanabaev I.B. “Turizm ham rekreaciyaliq geografiya” paninen oqiw-metodikaliq qollanba. Nókis- 2019, 128 bet.
7. uli Eshiniyazov B. A., uli Saliyev E. P., Egamberdiev F. B. TURIZM TARAWLARININ ILIMIY TIYKARLARININ UYRENILIWII //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 4. – C. 821-825.
8. Eshiniyazov B.A. OZBEKSTAN EKONOMIKALIQ HAM SOCIALLIQ GEOGRAFIYASIN UYRENIWDE TURIZMDI RAWAJLANDIRIW MASELELERI//Aniq va tabiiy fanlarni masofaviy oqitishning dolzarb masalalari. – 2023. C.128- 131.



## КОМПОЗИЦИОН ЯХЛИТЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ ОМИЛИ

**Қуйлиева Гулчехра Назаркуловна,**

Гулистон давлат университети (ГулДУ) докторанти,  
филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент

[kuylieva.g@mail.ru](mailto:kuylieva.g@mail.ru)

***Аннотация.** Ушбу мақолада Муҳаммад Алининг “Улуғ салтанат” роман-эпопеясидаги Ахий Жаббор, Уста Матпано эпизодик персонажларининг бадиий ифодаси таҳлил ва тадқиқ қилинган. Ёзувчи ижодий концепциясининг мукаммаллиги композицион яхлитликни таъминлаш омили экани кўрсатилган.*

***Калит сўзлар:** эпопея, персонаж, персонажлар иерархияси, характер, бадиий ифода, ижодий концепция, композицион яхлитлик, тариқат, поэтик маҳорат.*

## ФАКТОР ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЦЕЛОСТНОСТИ КОМПОЗИЦИИ

***Аннотация.** В данной статье анализируется и исследуется художественное воплощение эпизодических персонажей Ахий Джаббар и Уста Матпано в романе-эпопее Мухаммеда Али «Великое государство». Показано, что совершенство творческого замысла писателя является фактором обеспечения композиционной целостности.*

***Ключевые слова:** эпопея, персонаж, иерархия персонажей, характер, художественная выразительность, творческий замысел, композиционная целостность, тариқат, поэтическое мастерство.*

## THE A FACTOR TO ENSURE COMPOSITION INTEGRITY

***Annotation.** This article analyzes and explores the artistic embodiment of episodic characters Ahiy Jabbar and Usta Matpano in Muhammad Ali's epic novel "The Great State". It is shown that the perfection of the writer's creative idea is a factor in ensuring compositional integrity.*

***Keywords:** epic, character, hierarchy of characters, character, artistic expressiveness, creative concept, compositional integrity, tariqa, poetic mastery.*

Муҳаммад Алининг “Улуғ салтанат”<sup>1</sup> роман-эпопеясидаги Ахий Жаббор, Уста Матпано сингари персонажлар таҳлили ва тадқиқига киришишдан олдин айрим терминларнинг моҳияти ҳақида қисқача тўхталиш ўринлидир. Чунки эпопеяда мингга яқин адабий қаҳрамонлар мавжуд бўлиб, уларнинг таснифи муайян қийинчиликларни ҳам юзага келтириши табиий. Қолаверса, ўзбек тилидаги адабиётшунослик луғатларида терминлар таъриф-тавсифида баъзан турличалик кўзга ташланади. Биз имкон қадар кузатишга муваффақ бўлган назарий адабиётларда<sup>2</sup> бадиий асар персонажларининг қуйидаги типлари ажратиб кўрсатилади: а) мумтоз (классик) қаҳрамон; б) кундалик ҳаёт ташвишлари билан банд қаҳрамон; в) супер қаҳрамон; г) фожиавий (трагик) қаҳрамон; д) эпик қаҳрамон; е) анти қаҳрамон.

*Бадиий асарлар мутолаасида персонажларнинг қай бир фазилатларига аҳамият қаратишимиз зарур бўлади?*

Бизнингча, адабий қаҳрамон даставвал ўзининг ички ва ташқи кўриниши тавсифи (портрети) билан китобхон (томошабин) эътиборини тортади. Иккинчидан, у ҳаракат жараёнида кўрсатилиши керак. Шубҳасиз, ҳаракат фикрий, ҳаёлий, хотираларга берилиш сингари (ички) ёхуд ижтимоий жараёнларга аралашув шаклида (ташқи) намоён бўлади. Чунки персонаж ўзининг фикр-ҳислари билан ҳам эътиборни тортади. Унинг қандай қийиниши, ўйлаши, фикрлаши ва буни нутқига чиқариши ҳам жуда муҳимдир. Зотан

<sup>1</sup> Муҳаммад Али. Улуғ салтанат. Эпопея. Учинчи китоб. Мироншоҳ Мирзо. “ШАРҚ” НМАК Бош таҳририяти. – Тошкент 2014; Ёқубов И.А. Муҳаммад Али ижодида тарихий жараён концепцияси ва лиро-романтик талқин. Монография. –Т.: “Фан”, 2007. Ёқубов И.А. Тарих ҳақиқати ва инсоний тақдир улуғворлиги / Ёқубов И.А. Бадиий-эстетик сўз сехри. –Т.: “Fan va texnologiya” 2011. – Б 131-133.

<sup>2</sup> Характер литературный / В. И. Тюпа // [Большая советская энциклопедия](#): [в 30 т.] / гл. ред. [А. М. Прохоров](#). – 3-е изд. – М.: Советская энциклопедия, 1969-1978; Хализев В. Е. Теория литературы. – М.: Высшая школа, 1999. – 398 с; *Теория литературы: основные понятия и термины: учеб. пособие* / А. А. Косицин. – Самара: Издательство. СГАУ, 2012; Бахтин М.М. Тетралогия / М.М.Бахтин; сост., текстол. подгот., науч. аппарат: И.В.Пешков; коммент.: В.Л. Махлина и др. – М.: Лабиринт, 1998. – 607 с.; Бахтин М.М. Эпос и роман / М.М.Бахтин; сост. С.Г.Бочаров; вступ. ст. В.В.Кожин. – СПб.: Азбука, 2000. – 301 с; Гиршман М.М. Литературное произведение: теория художественной целостности / М.М.Гиршман. – 2-е изд., доп. – М.: Яз. рус. культуры, 2007. – 560 с; Поэтика: словарь актуальных терминов и понятий / гл. науч. ред. Н.Д.Тамарченко. – М.: Изд-во Кулагиной: Intrada, 2008. – 358 с; Современное зарубежное литературоведение: Страны Западной Европы и США: Концепции. Школы. Термины: энцикл. справ. / РАН, Ин-т науч. информации по общественным наукам; науч. ред. и сост.: И.П.Ильин, Е.А.Цурганова. – 2-е изд., испр. и доп. – М.: Intrada, 1999. – 319 с.

шундагина персонажнинг атрофини қуршаган одамлар ва муҳитга бўлган муносабатини аниқлаш мумкин бўлади. Қаҳрамон табиатини белгилашда ўзга персонажлар ва муаллифнинг унга бўлган муносабати (асар давомида қандай юксалиб бориши) ҳам муҳим аҳамият касб этади.

*Хўш, роман жанрида бош қаҳрамонлар сони нечта бўлгани маъқул?* Мутахассислар уларнинг сони учта бўлгани маъқул, деб ҳисоблашади. Чунки битта персонаж орқали конфликтли вазият-ҳолатлар яратиш ва китобхонда ҳамдардлик туйғусини уйғотиш мушкул, деб билишади. Демак, конфликтли вазият-ҳолатлар учун иккита қаҳрамон бўлса анча яхши экан-да, деб ўйлаш мумкин. Аммо, айтайлик эр-хотин, она-фарзанд, йигит-қиз тарзидаги жуфтликлар ўртасида тартибсизлик (хаос)ни келтириб чиқаришга таъсир қилувчи катализатор учинчи шахс (рақиб) образига ҳам эҳтиёж сезилади. Шундай қилиб, бош қаҳрамонлар сони учлик (триада) дан иборат бўлгани маъқул экан. Бу фикрни бутун адабиёт тажрибаси тасдиқлайди.

Демак, биз персонаж термини ўрнида: *образ, шахс, қаҳрамон, характер, ҳаракатланувчи инсон, тимсол* сингари бир қатор синонимларни қўлласак ҳам, бадиий асарнинг образлар системаси, сюжет линиясида персонажнинг ўз вазифаси, ўзгармас ўрни мавжудлиги аён бўлади.

Замонавий адабий жараённи кузатиш шуни тасдиқлайдики, адабий қаҳрамон ҳамиша ҳам ўзига қаттиқ ишонган, қандайдир жасоратлар кўрсатиб, фидойилиги билан кўпчиликка ўрнак бўладиган ва халқни эргаштирадиган персонаж бўлиши шарт эмас. Бироқ бу фикр “Улуғ салтанат” эпопеяси ижодий концепцияга дахлдор эмас. Адиб ўзининг пухта ва мукамал ижодий концепциясига асосланиб асарнинг композицион яхлитлигини таъминлайди. Роман эпопея марказига Соҳибқирон Амир Темур образини қўйиб, ўз фикр-ғояларини бош қаҳрамон зиммасига юклайди. Воқеалар занжирини ҳам юқоридан қуйига қараб (персонажлар иерархияси асосида) жойлаштиради. Ушбу тарихий роман эпопеядаги Ахий Жаббор, Уста Матпано сингари эпизодик персонажларга ҳам улкан ғоявий залвар юклайди. Романда мардлик ва

ҳалолликни тарғиб этган ахийлик ҳаракати ҳақида ўқувчи учун жуда қизиқарли маълумотлар берилади.

Шу нуқтаи назардан кузатилса, эпопеянинг бош қаҳрамони – Амир Темур салтанатининг вакиллари сифатида намоён бўладиган, ўзларини ахий сановчи Амир Шоҳмалик ва Ахий Жаббор каби персонажлар ахийлик<sup>1</sup> ва жавонмардлик тариқатининг саховат, сафо, вафо каби муҳим рунларига амал қилиб яшашади. Улар футувват аҳлининг хислатларини ўзлаштиришга, фазилатларини ҳаётларида намоён этишга, шартларини уддалашга астойдил ҳаракат қилишади. Масалан: Ахий Жаббор кимсадан нарсасини қизғонмайди. Кўнглини такаббурлик ва кибру-ҳаводан холи тутиб, шижоат кўрсатишга, эл хизмати йўлида фидойи инсон бўлишга интилади.

*“Тўлқинланган оломон жунбушга келди. Бақуриқ-чақуриқлар остида қозининг ишораси билан энди ҳамма тош олди... Сурон ичида шўрликларнинг инграган овозлари эшитилмай кетди.*

*Ахий Жаббор баҳодир ҳанг-манг, қонга бўялиб, қип-қизил гўштга айланган, аллақачон омонатини эгасига топширган бечораларга куйинди, тошлар ул бахти қароларга эмас, худди ўзига томон отилгандай туюлиб кетди, аммо бирон кўмак беришдан мутлақо оғизлигини ҳис қилди.”<sup>2</sup>*

Ахий Жаббор – тақводор ва мард киши. Бироқ, реал вазият олдида ожиз бир банда. Чунончи, шариат талаби бўйича зинокорларга ҳукм чиқарган қозига ҳам, бу ҳукмни ижро этган элнинг иродасига ҳам қарши бормайди. Оғир жазога мустаҳиқ қилинган бахтиқаро гуноҳкорларга қанчалик ачинмасин, амалий ёрдам беролмайди. Чунки, Аллоҳ таоло бандаларини зинога яқинлашишдан ва

<sup>1</sup> Ҳусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи султоний ёхуд жавонмардлик тариқати. Форс-тожик тилидан Н.Комилов таржи. –Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994, – Б.32; Меҳмет Рихтим. Азербайжон тасаввуф тўрунулари илк сўфийлар.// Theoretical Approaches to the Transmission and Edition of Oriental Manuscripts. Proceedings of a symposium held in Istanbul. March 28-30, 2001. – Beirut: Ercon Verlag Wurzburg in kommission. 2007: Abdülbaki Gölpınarlı. İslâm ve Türk illerinde Fütüvvet teşkilâti. – S. 27; *Турк адабиётида илк мутасаввифлар*. 8-босқи. (Нашрга тапёрловчи ва шарҳлар муаллифи доктор Ўрхон Ф. Кўпрулу – Анкара. 1993, – 415-б.)

<sup>2</sup> Муҳаммад Али. Улуғ салтанат. Эпопея. Учунчи китоб. Мироншоҳ Мирзо. “ШАРҚ” НМАК Бош таҳририяти. – Тошкент 2014. – Б.25 .

зинога сабаб бўладиган ишлардан қайтарганини яхши билади ва жунбушга келган оломонни тўхтатиб қолишга уринмайди.

Таъкидлаш ўринлики, хотини Оққиз бефарзандлик изтиробларидан ўртанганида Ахий Жаббор кўнглида толеи қаро эканидан бир оз нолиш оҳанглари ҳам кечади. Бу ҳолат ҳам унинг қисматга гоҳ кўниб, гоҳ исён қилиб, пировардида шукур қилиб яшаётган бир банда эканини кўрсатади.

Ахий Жаббор сув азал-азалдан анқога шафелиги маълум бўлган Карбало чўлида вужуд истагидан юксала олмаган шериги – Айбож ўғлонга ўз улушини илинади:

*“– Ўлсам ўламан, аммо туркнинг мардлиги-ю ҳиммати, шаънини юксак тутаман, токи унинг сахию ахий экани, яхши номи жаҳон юзида боқий қолсун! Сизга ўзимнинг бир ичим сувимни раво кўргайман!...”<sup>1</sup>*

Унинг баходирлиги наинки жисмоний кучи, ахийлик, жавонмардлик йўлига садоқати – маънавий-руҳий қудратида ҳам ошкор кўринади. Шунинг учун ҳам китобхон кўз ўнгида саховатли, олийҳиммат, муруватпеша ва танти инсон сифатида гавдаланади. Амир Темур бунёд этган Турон салтанатининг улуғлиги ҳам турклик улуғлангани, миллат шаън-шавкати юксак пояларга кўтарилгани, қолаверса эҳтиёжманд бўлса-да, ўз хаётини хавф-хатарга қўйиб, бардош ва матонат билан нафсининг ҳиссасидан кеча оладиган, ризқ-насибасини ҳамроҳига бахшида этадиган мард, олийҳиммат, саховатли ўғлонлари борлиги билан белгиланади.

Уста Матпано образини биз дастлаб нақшинкор пештоқлари қулаган хоразмшоҳларнинг Гурганждаги саройига қараб кўз ёш тўкаётган ўксик кайфиятда учратамиз:

*“Атрофда ҳамма жон сақлаб, ўзини ҳар ёққа урар, унинг эса ҳечким билан иши йўқ, гоҳ маҳобатли пештоққа, гоҳ тошлар текканидан ўйиқлар ҳосил қилган, Моний чизган расмдай гўзал гулчин дарвозага жим қараб тураркан, қисик кўзларидан ёш оқарди.*

---

<sup>1</sup> Ўша манбаа. – Б.324 .

– *Фарзандингиз шундоққина олдингизда нобуд бўлса, қандоқ чидамоқ мумкин? – деб қўярди у ўзига ўзи гапиргандай. – Ҳалиям бандаси чидайди...*

*Амир Сайфиддин некўз яқинлашаркан, у одамдан сўради:*

– *Фарзандим, дейсиз... Қани фарзандингиз?*

– *Ана!- дея ёнаётган, харобага айланган қасрни кўрсатди ҳалиги одам. – Бу сарой фарзандим эди.*

*Амир Сайфиддин некўз хижолатда қолди.”<sup>1</sup>*

Кўринадики, ўз қўллари билан яратилган биноларнинг кўз ўнгида яқсон қилиниши истасододли кекса меъмор учун худди қадрдон фарзандини йўқотиш каби аянчли ҳол. Бунёдкор инсон – уста Матпанонинг уруш, саваш ва босқин деб аталувчи ягона душмани бор. Чунки меъморнинг ҳаёт мантиғига кўра бандаси худонинг ерини обод қилиш, гуллатиш учун дунёга келади. Англашиладики, эпизодик персонаж ҳам Муҳаммад Али эпопеяга сингдирган инсон боласининг ёруғ оламда яшашдан кўзлаган бош мақсади вайрон этмоқ эмас, балки бунёд қилмоқдир, деган концептуал ғояни ташимоқда.

Уста Матпанонинг ижодкор инсон, андак дарвешфешл, синиқ табиатли, хокисор киши эканлиги Амир Темурнинг кўнглидаги ният, тилидаги сўз ва қилаётган амаллари муштараклигини синаши, тунларни бедор ўтказиб йиллар давомида қурилиш ташвишларига шўнғиб кетиши каби ҳолларда ҳам кўзга ташланади. Матпано Хоразмийнинг хокисорлиги теран эътиқодий асосларига эга. Адибнинг таъриф этишича, у ўз қилаётган амалларининг беғаразлигини таъминлашга интилувчи, кибру ҳаводан мутлақо холи инсон. Уста Матпанонинг Амир Темурдан Оқсарой бош меъморлигини Муҳаммад Юсуф Табризийга топширнишни сўраган кездеги мезбону меҳмон меъморлар суҳбати, аниқроқ айтганда камтарлик ва синиқлик бобидаги самимий тортишувга эътибор берайлик:

---

<sup>1</sup> Муҳаммад Али. Улуғ салтанат. Эпопея. Учинчи китоб. Мироншоҳ Мирзо. “ШАРҚ” НМАК Бош таҳририяти. – Тошкент 2014. – Б.109.

“– Бизлар мезбон... Лозим топсалар, бош меъморликни қўли гул меҳмонимизга тобишурсалар... – таъзим қилди Уста Хоразмий.

– Йўқ-йўқ, камина шогирддурбиз... – қўл қовуштиради Юсуф Табризий. – Йўқ-йўқ...

– Меҳмонимизга тобишурсалар...

– Қуллуқ... камина шогирддурбиз...

– Тобишурсалар...

– Шогирддурбиз...”<sup>1</sup>

Уста Матпанонинг собит эътиқодига кўра, оламда яратувчи – ёлғиз Оллоҳнинг ўзи. Меъмор эса, Худо унинг кўнглига солган истакларни адо этувчи бир бандадир. Бинобарин, унинг меҳнати беғараз, ҳар қандай даъволардан йироқ тарзда ва сидқидилдан амалга оширилмоғи лозим. Шунинг учун ҳам Матпано Хоразмий фарзандлари ва шогирдларига ўз “имзо”ларини бунёд этилган биноларнинг пинҳон жойларига яшириш, меъмор исмини кўз кўз қилишдан тийилишдан сабоқ беради. Бу муҳим деталь образ моҳиятини очишда катта аҳамиятга эга.

Фалокатлардан дили озурда уста Матпано Оқсарой бош меъморлигига тайинланиши ҳам бежиз эмас. Бу орқали адиб Амир Темурнинг яратувчи ва яшнатувчи инсон эканлигига урғу беради. Айтиш мумкинки, романда тасвирланган соҳибқирон Амир Темур ва уста Матпано образлари уруш ва босқинларга нисбатан нафрат кўзи билан қараши, бунёдкор, камтарин инсонлиги, реал вазият талаблари олдида ожизлиги жиҳатидан ҳам, яратувчилик юмушларининг тепасида туришлари билан ҳам бир бирларини тўлдиради.ё

Дарҳақиқат, Соҳибқирон Амир Темур нафақат Оқсарой қурилишига бош-қош бўлади. Балки, Нажмиддин Кубронинг шогирди Сайфиддин Бохарзий даҳмаси ёнида мақбара ва хонақоҳ қурдириб, атрофини гулзор қилади. Шунингдек, Баҳовуддин Нақшбанд мазорини обод қилиб, фақиру мискинларга

<sup>1</sup> Муҳаммад Али. Улуғ салтанат. Эпопея. Учинчи китоб. Мироншоҳ Мирзо. “ШАРҚ” НМАК Бош таҳририяти. – Тошкент 2014. – Б.126.

хайру-эхсон улашади. Кейинчалик, Андижон ва Марғилонда мадрасалар бунёд этиш, Чиноз яқинида Сирдарё устига кўприк солдириш, Самарканд атрофида ўн тўртта боғ яратиш ишларига ҳам бош бўлади. Бундай эзгу ишларнинг аксарияти, соҳибқирон орзу-интилишларини теран англаган уста Матпано сингари ишончли ва садоқатли меъморлар кўли, юрак кўри билан ҳам бунёд этилгани шубҳасиз.

Эл-юрт хотиржамлигини таъминлаш зарурияти баъзан қилич кўтариб майдонга чиқишни ҳам тақозо этади. Бунёдкорлик билан шуғулланибгина яшаш имконсиз бўлган пайтларда ҳам Амир Темур қилич-қалқонсиз тинч ва осуда замонлар келиши, боғу-роғлар, қасру-иморатлар бунёд қилиб, йўлларни обод этиб, зироату тижорат ишларига ривож бериб умргузаронлик қиладиган, тўй-тантаналар, байрамларни нишонлайдиган, хайру эҳсонлар-ла етим-есирлар бошини силайдиган дориломон замонлар келишини орзулайди. Зотан, унинг қалби эзгу юмушлар этагини тутмоқнигина тилайди.

Муҳаммад Али ижодий концепциясининг мукамаллиги роман эпопея композицион яхлитликни таъминлашда муҳим омил бўлган. Дарҳақиқат, адиб аксарият қаҳрамонларини эътиқод ва иймон уйғунлиги, тақдири азалга ишонч фалсафаси, шукроналик туйғуси асосида тасвирлашга, кўнгил тилаклари ва реал ҳаёт зиддиятлари фониди очишга интилан.

### Адабиётлар рўйхати:

1. Алишер Навоий. Маҳбуб-ул қулуб – Б.45. – <http://library.navoiy-uni.uz/>
2. Бахтин М.М. Тетралогия / М.М.Бахтин; сост., текстол. подгот., науч. аппарат: И.В.Пешков; коммент.: В.Л. Махлина и др. – М.: Лабиринт, 1998.
3. Бахтин М.М. Эпос и роман / М.М.Бахтин; сост. С.Г.Бочаров; вступ. ст. В.В.Кожин. – СПб.: Азбука, 2000.
4. Гиршман М.М. Литературное произведение: теория художественной целостности / М.М.Гиршман. – 2-е изд., доп. – М.: Яз. рус. культуры, 2007
5. Ёқубов И.А. Муҳаммад Али ижодида тарихий жараён концепцияси ва лиро-романтик талқин. Монография. –Т.: “Фан”, 2007.
6. Ёқубов И.А. Бадиий-эстетик сўз сеҳри. –Т.: “Fan va texnologiya” 2011.



## MAMLAKATIMIZDA TADBIRKORLIK SOHASINI RIVOJLANTIRGAN HOLDA YANGI ISH JOYLARINI YARATISH MUHIM OMIL SIFATIDA

**Barnoyev Olim Soliyevich**

Jizzax Politexnika instituti, O‘zbekiston

***Annotasiya:** Mazkur maqolada O‘zbekistonda aholini ish bilan ta‘minlashni yanada yaxshilash va uning farovonligini oshirishning eng muhim yo‘nalishi sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko‘rsatish va kasanachilik sohaslarini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishni rag‘batlantirish, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.*

***Kalit so‘zlar:** tadbirkorlik, raqobat muhiti, talab va taklif, bozor konyunkturasi, bozor infratuzilmasi, antimonopol siyosat.*

Mamlakatimiz iqtisodiyotini taraqqiy ettirishda kichik biznes va tadbirkorlik alohida ahamiyat kasb etadi va hozirgi sharoitda uning roli yanada ortib bormoqda. Shu sababdan ham kichik biznes va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish har qanday mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘shishini ta‘minlovchi asosiy bo‘g‘in va amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Iqtisodiyotda ro‘y berayotgan turli ijobiy o‘zgarishlar ko‘p jihatdan kichik biznes va tadbirkorlikning rivojlanishi bilan uzviy bog‘liqdir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlab o‘tganlaridek: “...jiddiy va kundalik e‘tiborini talab qiladigan yana bir muhim yo‘nalish bor. Bu - xususiy mulk va tadbirkorlikni yanada rivojlantirish va ularning ta‘sirchan himoyasini ta‘minlashdir”.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini

rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasining «Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlari» nomli bobida tadbirkorlik va biznesni rivojlantirish asosida yangi ish oʻrinlarini yaratish hamda aholining, eng avvalo, taʼlim muassasalari bitiruvchilarining ish bilan bandligini taʼminlash, ishsizlik darajasini kamaytirish vazifasi belgilangan.

Dunyo davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot tajribasidan yaxshi maʼlumki, har qanday mamlakatning iqtisodiyoti uni rivojlantirishning obʼyektiv qonuniyatlari, mavjud iqtisodiy salohiyat va imkoniyatlari, shu mamlakatda yashayotgan xalqning oʻziga xos turmush tarzi, tafakkuri, milliy qadriyat va anʼanalari, maʼnaviy boyliklari toʻla hisobga olingan, puxta iqtisodiy siyosat ishlab chiqilib, izchil amalga oshirilgan sharoitdagina barqaror va mutanosib rivojlana oladi. Investisiya sohasi — milliy iqtisodiyotning muhim sohalaridan biridir. U kengaytirilgan qayta ishlab chiqarishning surʼatlari va kulamiga faol taʼsir koʻrsatadi, ilmiy texnikaviy taraqqiyotni va axolining ancha qismini bandligini taʼminlaydi. Iqtisodiyotdagi tuzilmaviy oʻzgarishlar respublika ishlab chiqarish kuchlarining oqilona joylashtirilishi va rivojlanishi koʻpchilik xollarda uning qay axvolda ekanligiga bogʻliqdir.

XXI asr va yaqin kelajakda mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining barcha jabhalarini modernizatsiyalashsiz tasavvur etib boʻlmaydn. Iqtisodiyotnn modernizatsiyalash esa, oʻz navbatida, katta hajmdagn investisiyalarni talab qiladi.

Darxaqiqat, milliy iqtisodiyotimizning ravnaqi. fan-texnika taraqqiyoti, axoli bandligi investisiyalar bilan chambarchas bogʻliqdir. Ishlab chiqarishda tarkibiy oʻzgarishlarni amalga oshirish, uni intensiv rivojlantirish ham koʻp jihatdan investsiyalarga borib taqaladi. Xatto, iktisodiyot tarmoqlarida zamonaviy texnmka-texnologiyalarni joriy qilish va shu asosda raqobatbardoshlikka erishish, jaxon bozorlarini egallash. mamlakatimizning eksport saloxiyatini oshirishni investisiyalarsiz taʼminlashning iloji xam yoʻk. Qisqacha qilib aytganda, investisiyalarsiz modernizasiya ham, yangilanish ham boʻlmaydi.

Soʻnggi yillarda iqtisodiyotda izchillik bilan amalga oshirilayotgan tuzilmaviy

o'zgarishlar va modernizatsiyalash jarayoni investision faollikni ta'minladi. Mamlakatimiz iqtisodiyotiga kiritilayotgan jami xorijiy investisiyalar tarkibida jiddiy ijobiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Iqtisodiyotga xorijiy investisiyalarni jalb etishning tarmoq tarkibida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Iqtisodiyotni erkinlashtirish bosqichlarida iqtisodiyotga yunaltirilgan xorijiy investisiyalar tarkibida sanoat ulushi yetakchi o'rinni saqlab qolgan holda pasayish tendensiyasiga ega. Qishloq xo'jaligi tarmog'ini rivojlantirishga qaratilgan xukumatning say'-xarakatlariga qaramasdan sohaga yunaltirilgan investisiyalar ulushi tarmoq extiyojiga nisbatan pastroq darajada saqlanib turibdi. Makroiqtisodiy barqarorlikka erishilishi, iktisodiy va institusional isloxlarning chuqurlashtirilishi xamda mamlakatimizda investisiya muxitining yaxshilanishi investisiya faolligining sezilarli darajada kuchayishiga va iqtisodiyotimizga yunaltirilayotgan kapital qo'yilmalar xajmining o'sishi uchun imkon berdi.

Iqtisodiyotda investisiya hajmining yildan-yilga sezilarli ravishda usib borishi xamda muqarrar ravishda milliy ishlab chiqarish xajmining o'sishi orqali o'zining ijobiy natijalarini ko'rsatishiga imkon yaratmoqda. Davlat tomonidan investision faoliyatni rivojlantirishga berilgan e'tibor va qo'llab-quvvatlanish natijasida yalpi ichki mahsulot (YAIM) xajmi va investisiyalar miqdori o'sish suratlariga ega bo'ldi.

Ayni vaqtda mamlakatimizda investision faoliyatni rivojlantirish borasida sezilarli darajada ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanayotgan bo'lsa-da, muammolardan holi emas. Jumladan: investsiyalashning asosi hisoblangan jamg'armalarning nisbatan past darajada ekanligi; qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanish darajasi sustligi; investision faoliyatni moliyalashtirish manbalarining nooqilona tarkibi; investision faoliyatni moliyalashni bozor mexanizmlarining yaxshi rivojlanmaganligi; tijorat banklarining investision kreditlash saloxiyati past darajada ekanligi; investision faoliyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir etuvchi omillarning mavjudligi kabilar bunga misol bo'la oladi.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi muammolarning samarali hal etilishi mamlakatimizda investision faoliyatning taraqqiy etishini ta'minlab, ko'pgina

ijtimoiy iqtisodiy vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishiga ko‘mak beradi. Investisiya jarayonining faollashtirilishi esa ishlab chiqarishni kengaytirish siyosatini amalga oshirishga, ilmiy-texnika taraqqiyotini jadallashtirishga, milliy mahsulotlarni raqobatbardoshligini ta‘minlash va uning sifatini oshirishga, ijtimoiy sohalarni yanada rivojlantirishga, ijtimoiy muammolarni bartaraf etishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Uglu, R. S. S. (2021). Analysis of economic reforms increasing labour resources in the republic of uzbekistan. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(11), 390-396.

2. Расулов, Ш. (2022). ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА МЕХНАТ РЕСУРСЛАРИНИНГ ИШ БИЛАН БАНДЛИГИНИНГ ЖОРИЙ ҲОЛАТИ ТАҲЛИЛИ. *Экономика и образование*, 23(2), 227-232.

3. Расулов, Ш. (2022). МАМЛАКАТ ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА МЕХНАТ РЕСУРСЛАРИНИНГ ЎРНИ ВА РОЛИ. *Экономика и образование*, 23(4), 149-153.

4. Расулова, Ш. Ф. (2021). ЎЗБЕКИСТОНДА БАНДЛИК МУАММОСИ. ИШСИЗЛАРНИ ИЖТИМОЙ ҲИМОЯ ҚИЛИШ. *Global Science and Innovations: Central Asia (см. в книгах)*, 3(7), 22-25.

5. Расулова, Ш. Г. (2019). ВАЖНОСТЬ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕР ПО ПОВЫШЕНИЮ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (3-8), 95-100.

6. Расулова, Ш. Ф. (2019). ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ПОЛИТИКА ГОСУДАРСТВА И ПОВЫШЕНИЕ ЕЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ, НАПРАВЛЕННЫЕ НА ПОВЫШЕНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ

НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (3-8), 90-95.

7. Rasulova, S. G., & Obidova, F. Y. (2019). ISSUES OF SMALL BUSINESS DEVELOPMENT. *Theoretical & Applied Science*, (9), 426-429.

8. Rasulova, S., & Jabborova, Z. (2019). PRINCIPAL DIRECTIONS ON THE DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP. *International Finance and Accounting*, 2019(3), 18.

9. Расулова, Ш. Г. (2020). ПРИВЛЕЧЕНИЕ ИНВЕСТИЦИЙ. *Экономика и социум*, (2), 316-319.

10. Якубов, С. Ф., Гафуров, А. Т., & Расулова, Ш. Г. (2015). Вопросы активизации деятельности коммерческих банков в финансировании инвестиций. *Молодой ученый*, (3), 551-556.

11. uglu, R. S. S. . (2023). CRITERIA AND CHARACTERISTICS OF THE FORMATION OF LABOR RESOURCES IN A MODERN MARKET ECONOMY. *ARXITEKTURA, MUHANDISLIK VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR JURNALI*, 2(1), 56–60.

12. Файбуллаевна, Р. Ш. ., & ўғли, Р. Ш. Ш. . (2023). ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА МЕҲНАТ РЕСУРСЛАРИ БАНДЛИГИГА ҚАРАТИЛГАН ДАВЛАТ СИЁСАТИ. *ARXITEKTURA, MUHANDISLIK VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR JURNALI*, 2(1), 74–76.

13. Rasulov Shavkat Sharof uglu. (2022). ANALYSIS OF OPPORTUNITIES AND THE CURRENT STATUS OF INCREASING THE EFFICIENCY OF THE USE OF LABOR RESOURCES IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *World Bulletin of Management and Law*, 10, 11-17.

14. Gaybullaevna, R. S. (2023). Construction Industry in Uzbekistan Is an Important Priority Network of the National Economy. *Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress*, 2(3), 69-71.

15. Gaybullaevna, R. S. (2023). Construction Industry in Uzbekistan Is an Important Priority Network of the National Economy. *Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress*, 2(3), 69-71.
16. Gaybullaevna, R. S. (2023). Methods for Assessing the Economic Efficiency of Investments in Construction. *European Journal of Higher Education and Academic Advancement*, 1(1), 95-98.
17. Gaybullaevna, R. S. (2023). Economic Efficiency of Investing in Construction. *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development*, 5(3), 94-97. Retrieved from <https://journals.researchparks.org/index.php/IJEFSD/article/view/4171>
18. Sharifa, R., & Mahliyo, K. (2023). ORGANIZATIONAL STRUCTURE OF ENTERPRISES AND THEIR APPEARANCES. *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE*, 2(5), 77-83.
19. Gaybullayevna, R. S. (2023). WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP IS A FACTOR OF INCREASE IN OUR COUNTRY'S ECONOMIC WELFARE AND SOCIAL DEVELOPMENT. *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE*, 2(5), 73-76.
20. Gaybullayevna, R. S. (2023). MODERN FUNDAMENTALS OF FINANCIAL MANAGEMENT OF INVESTMENT ACTIVITY. *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE*, 2(5), 51-54.
21. Keldiyorovich, O. I., & Sharof o'g'li, R. S. (2023). PUL OQIMLARI TO'G'RISIDAGI HISOBOTLARNI TUZISHGA QO 'YILGAN TALABLAR. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(1), 276-283.

## TYPES AND FORMS OF TOURISM IN UZBEKISTAN

**Shahrizoda Ne'matova**

1st-year student in The English language department at Fergana State University

**Annotation:** *Tourism is traveling for pleasure or business purposes to different destinations outside one's usual environment. It involves the movement of people from one place to another, typically for recreational, cultural, or educational purposes. Tourism in Uzbekistan has been steadily growing in recent years as the country has opened up to international visitors and implemented various measures to promote its rich cultural heritage and natural beauty. Moreover, tourism plays a significant role in the country's economy and is considered an essential sector for its development. In 2021, Uzbekistan generated around 679.00 million US dollars in the tourism sector alone.*

**Keywords:** *mosques, cultural heritage, ecotourism, adventure, medicine, history, landscapes, economy, tourists, sector.*

### **Introduction**

Uzbekistan is known for its well-preserved historic cities along the ancient Silk Road, such as Samarkand, Bukhara, and Khiva. These cities boast stunning architecture, including mosques, madrasas (Islamic schools), mausoleums, and palaces, showcasing the country's Islamic and Persian influences. Although Uzbekistan's strategic location on the Silk Road has left it with numerous archaeological sites and trading hubs, Registan Square in Samarkand, with its three grand madrasas, is a UNESCO World Heritage Site and a major tourist attraction. Other notable sites include the Shah-i-Zinda Necropolis, Itchan Kala in Khiva, and the Ark of Bukhara. This country also offers diverse landscapes, from vast deserts like the Kyzylkum Desert to picturesque mountain ranges like the Tian Shan and

Pamir-Alay. Plus, the country has beautiful lakes, such as Aydarkul and Charvak, which provide opportunities for water-based activities. In addition to that, Uzbekistan is renowned for its traditional crafts, including intricate embroidery, silk weaving, ceramics, and woodwork. Visitors can explore local workshops and markets to witness these crafts being practiced and purchase unique handmade souvenirs. Uzbekistan is considered a safe destination for tourists, with a low crime rate and a friendly local population known for their warm hospitality and willingness to assist visitors. This landlocked Central Asian nation offers more than anyone can explore in a lifetime. Whether you crave a night in the soothing serenity of a remote mountain village or a walk through the streets of history, Uzbekistan will not disappoint. Uzbekistan tourism is all about exploring what you're interested in, and you'll be sure to find it here!

### *Main part*

Tourism plays a significant role in the global economy, contributing to job creation and economic growth. It is a multi-faceted industry encompassing various sectors such as transportation, accommodation, attractions, and hospitality services. The tourism industry includes a wide range of activities, from visiting historical sites and natural wonders to participating in adventure sports and experiencing local cultures. Tourism is typically for recreational, cultural, or educational purposes, and it can be domestic, where individuals explore their own country, or international, where individuals visit foreign countries.

There are three primary forms of tourism in Uzbekistan, as in other countries: domestic tourism, inbound tourism, and outbound tourism.

- **Domestic tourism** means visits within a country by visitors who are residents of that country.
- **Inbound tourism** means visits to a country by visitors who are not residents of that country.
- **Outbound tourism** means visits by residents of a country outside that country.



There are several types of tourism that exist in Uzbekistan:

1. *Cultural Tourism:* Uzbekistan is known for its rich history and cultural heritage. Tourists visit historical cities like Samarkand, Bukhara, and Khiva, which are home to numerous architectural marvels such as mosques, mausoleums, madrasas, and ancient citadels. For those who love textiles, ceramics, patterns, and festive colors, Uzbekistan is as good as it gets. The Fergana Valley is famous for its artisans—potters at the Rishtan ceramics school and silk weavers in Margilan, among countless others. Bukhara is perhaps the best place to buy souvenirs, with a wide variety of top-quality crafts and gifts, while nimble woodcarvers can be seen hard at work in Tashkent and Khiva.
2. *Historical Tourism:* Uzbekistan has a long and fascinating history, with many ancient sites and ruins scattered throughout the country. Tourists can explore archaeological sites like Afrasiyab in Samarkand or Toprak Kala in Karakalpakstan, which offer insights into the region's past civilizations. In addition, some people cannot miss out on less famous yet equally impressive destinations like Termez, a Buddhist center on the southern border, or Shahrissabz, the birthplace of the great warrior Tamerlane.
3. *Silk Road Tourism:* As a significant part of the ancient Silk Road trade route, Uzbekistan attracts tourists interested in retracing the footsteps of merchants and explorers from centuries ago. The country offers various Silk Road sites, including trading hubs, caravanserais, and historical routes.
4. *Ecotourism:* Ecotourism in Uzbekistan involves exploring the country's diverse natural landscapes and participating in outdoor activities that promote conservation and sustainability. Ecotourism enthusiasts can explore national parks like Chatkal and Zaamin, go hiking in the Tian Shan Mountains, or visit the Aral Sea region for unique ecological experiences. Some popular ecotourism activities in Uzbekistan include wildlife watching, hiking and trekking, desert exploration, nature photography, camping, and many others.

5. *Adventure Tourism:* Uzbekistan offers opportunities for adventure seekers. Activities such as trekking, mountaineering, horseback riding, and even camel safaris can be enjoyed in different parts of the country. Heading out into nature will give you a completely different perspective on Uzbekistan. Options for adventure and nature tourism in Uzbekistan abound: spend the night in a yurt, experiencing how nomads have lived for centuries, or hike through the narrow canyons of the Chimgan Mountains, not far from Tashkent.
6. *Religious Tourism:* Uzbekistan has a rich Islamic heritage, with numerous mosques and religious sites. Visitors interested in Islamic history and architecture often visit places like the Bibi-Khanym Mosque in Samarkand or the Kalyan Mosque in Bukhara. Several of our tours visit the mausoleums of these significant figures, including Bahauddin Naqshbandi, founder of a famous Sufi order, and Imam al-Bukhari, who collected numerous hadith.
7. *Culinary Tourism:* Uzbek cuisine is renowned for its unique flavors and traditional dishes like plov (pilaf), shashlik (kebabs), and various types of bread. And it's not enough to try the local foods in one city; each region has its signature dishes. "Shivit oshi" (noodles infused with dill and served with vegetables) and "tuhum barak" (boiled square dumplings filled with egg) are found only in Khiva. At the same time, Bukhara is home to a particular type of plov that's cooked in layers, with meat, carrots, raisins, and rice all simmered together. So, culinary tourists can explore local markets, participate in cooking classes, and indulge in Uzbek gastronomy.
8. *Health and Wellness Tourism:* Uzbekistan has a long tradition of spa and wellness practices. Tourists can visit health resorts, thermal springs, and traditional healing centers to experience various treatments and therapies. Moreover, Uzbekistan has a growing reputation for providing high-quality medical treatments at affordable prices. Many international patients travel to Uzbekistan for procedures such as dental treatments, cosmetic surgeries, fertility treatments, and cardiac surgeries.

These are just some of the types of tourism that exist in Uzbekistan, and the country continues to develop its tourism industry to cater to a wide range of interests.

### ***Conclusion***

In conclusion, Uzbekistan offers a diverse range of tourism opportunities that cater to different interests and preferences. From cultural tourism, adventure tourism, and ecotourism to Silk Road tourism, culinary tourism, religious tourism, and health and wellness tourism, there is something for everyone in this Central Asian gem. With its rich cultural heritage, stunning landscapes, and warm hospitality, Uzbekistan is a destination that promises unique and unforgettable experiences for all types of travelers. Whether you are seeking historical exploration, adrenaline-pumping adventures, or a taste of authentic cuisine, Uzbekistan is sure to leave a lasting impression on any visitor.

### **References:**

1. <https://www.advantour.com/uzbekistan/tourism.htm>
2. Kasta Law Firm. "Uzbekistan: Government Incentives for Tourism Sector Investment."  
<http://www.mondaq.com/x/772038/Hotels+Hospitality+Government+incentives+for+tourism+sector+investment> (retrieved July 26, 2019).
3. Mukhtorova, B. A., Mayusupova, M. R., & Abdurakhimova, Z. B. (2023). ACTUAL PROBLEMS OF TRANSLATING PROPER NOUNS IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES. THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD, 2(4), 40-52.
4. <https://www.people-travels.com/about-uzbekistan/uzbekistan-tourism.html>
5. Obidjon Khamidov. "New Stage of Tourism Development in Uzbekistan: Actual Problems and Perspectives." World Science News.  
<http://www.worldscientificnews.com/wp-content/uploads/2017/08/WSN-863-2017-134-149.pdf> (retrieved July 17, 2019)

6. Musaev Husanboy Hasanovich. “Tourism in Uzbekistan: opportunities and new challenges.” <https://cyberleninka.ru/article/n/tourism-in-uzbekistan-opportunities-and-new-challenges>.
7. “Uzbekistan sees a fivefold increase in the tourism industry.” AzerNews. <https://menafn.com/1098270663/Uzbekistan-sees-fivefold-increase-in-tourism-industry> (retrieved July 18, 2019).
8. Mukhtorova, B. (2023). THE LINGUISTIC AND CONCEPTUAL PICTURE OF THE WORLD. *Science and innovation*, 2(B1), 461-466.

**TABLE OF CONTENTS**

<b>Sr. No.</b>	<b>Paper/ Author</b>
<b>1</b>	<b>Abduraxmonov Sherali Sharifjonovich. (2023). O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHI. SCHOLAR, 1(22), 4–16. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.8267917">https://doi.org/10.5281/zenodo.8267917</a></b>
<b>2</b>	<b>Mukhammadieva Dilshoda. (2023). TEACHING SUBJECTS ON THE THEORY OF PROBABILITY IN SCHOOL MATHEMATICS LESSONS WITH THE HELP OF LIFE EXAMPLES. SCHOLAR, 1(22), 17–19. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.8267930">https://doi.org/10.5281/zenodo.8267930</a></b>
<b>3</b>	<b>Lobar Sirojiddin qizi Jumaniyazova. (2023). ALEKSANDR FAYNBERG SHE'RLARINING LINGVISTIK TAHLILI. SCHOLAR, 1(22), 20–23. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.8267934">https://doi.org/10.5281/zenodo.8267934</a></b>
<b>4</b>	<b>Садикова Эльвира Витальевна. (2023). ОСНОВНЫЕ МЕТОДЫ И ПРИЕМЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ВАРИАТИВНОСТИ В ПОСЛОВИЦАХ. SCHOLAR, 1(22), 24–27. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.8267936">https://doi.org/10.5281/zenodo.8267936</a></b>
<b>5</b>	<b>Sobirova Asilabonu Aziz qizi. (2023). ALEKSANDR FAYNBERG O'ZI KIM?. SCHOLAR, 1(22), 28–31. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.8267944">https://doi.org/10.5281/zenodo.8267944</a></b>
<b>6</b>	<b>Ergashev Alisher Anvarjonovich. (2023). OT ZOTLARINING ZOOTEKNIKAVIY KLASSIFIKATSIYASI. SCHOLAR, 1(22), 32–38. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.8267954">https://doi.org/10.5281/zenodo.8267954</a></b>
<b>7</b>	<b>Noriyeva Aziza Jasur qizi. (2023). RESULTS OF PROPERTIES OF FIBONACCI NUMBERS. SCHOLAR, 1(22), 39–43. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.8267964">https://doi.org/10.5281/zenodo.8267964</a></b>

8

Дилноза Шавкат қизи Хамдамова, Аипашша Джаббаровна Таджиева, Васи́ла Каби́левна Умарова, & Махмут Темурович Примкулов. (2023). МКЦ АСОСИДА ТАБЛЕТКА ИШЛАБ ЧИҚИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ. SCHOLAR, 1(22), 44–51. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8267968>

9

Qosimbetov Jandulla Satulla uli, Rajabova Mardona Azimjon qizi, Jiyemuratov Asadbek Seytmurat uli, & Shamshetova Dilbar Mirzabay qizi. (2023). TURIZM GEOGRAFIYASINI ILMIY TIYKARLARINI UYRENILIVI. SCHOLAR, 1(22), 52–56. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8267974>

10

Қўйлиева Гулчехра Назарқуловна. (2023). КОМПОЗИЦИОН ЯХЛИТЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ ОМИЛИ. SCHOLAR, 1(22), 57–64. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8267983>

11

Barnoyev Olim Soliyevich. (2023). MAMLAKATIMIZDA TADBIRKORLIK SOHASINI RIVOJLANTIRGAN HOLDA YANGI ISH JOYLARINI YARATISH MUHIM OMIL SIFATIDA. SCHOLAR, 1(22), 65–70. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8267991>

12

Shahrizoda Ne'matova. (2023). TYPES AND FORMS OF TOURISM IN UZBEKISTAN. SCHOLAR, 1(22), 71–76. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8267997>